

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

K.O‘.T O‘RABOYEVA

**XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-
QUVVATLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA

Qarshi – 2023 y.

Ilmiy muharrir:

Ergashev R.X. – QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d.

Taqrizchilar:

A.D.Ravshanov –QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

G‘.F.Quchqarov –QarDU “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: Monografiya, A.D.Ravshanov– Qarshi, 2023, 80 bet.

Monografiyada xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarining ustuvor yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari, Respublikamizda xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish hisobiga mahsulot va xizmatlarlarining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlik korxonalarining daromadlarini oshirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asoslab berilgan.

Monografiyada keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz xususiy tadbirkorlik korxonalarni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish mexanizmining chora-tadbirlarining asosiy yo‘nalishlari ochib berilgan bo‘lib, tadqiqot natijasida olingan ilmiy va amaliy xulosalar xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida foydalanish tavsiya etilgan. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarining istiqbolli yo‘nalishlaridan amaliyotda joriy etish va keng foydalanish mumkin.

Monografiya “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishidagi Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat hamda magistratura talabalari, professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va keng kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2023 yil ____ yanvardagi ____-sonli majlis bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	7
1.2. Xususiy tadbirkorlik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	23
1.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi va undan foydalanish samaradorligini oshirish.....	30
II BOB. IQTISODIYOTNING TURLI BOSQICHLARIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISHLAR.....	41
2.1. Mintaqada xususiy tadbirkorlik rivojlanishi va undagi o‘zgarishlar.....	41
2.2. Iqtisodiy islohotlar sharoitida xususiy tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, uning shakllanish jarayonlari.....	46
2.3. Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishning iqtisodiy baholanishi uning tahlili.....	48
III BOB. XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	54
3.1 Xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llari.....	54
3.2 Xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish istiqbollari	65
Xulosa va takliflar.....	72
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	76

KIRISH

O‘zbekistonda davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilishi hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlanishi bilanoq inson faoliyatining mazmunida ham muhim o‘zgarishlar yuz bera boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o‘rin egallashi kerak”¹ birinchi galda, tadbirkorlikning rivojlanishiga taalluqli bo‘lib, u mulkchilik va aholining ish bilan bandligi sohasidagi o‘zgarishlar bilan keng ma’noda bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni qabul qilinib strategiyani amalga oshirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shu jumladan, “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”² hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikada bozorni o‘rganish, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, xodimlarni rag‘batlantirish borasidagi harakatlarni muhimligidan dalolat beradi. Bunday sharoitda tadbirkorlik subektlariga mustaqillik berish ularda o‘z faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko‘p mablag‘ talab etmaydigan xo‘jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori suratlarni ta’minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste’mol bozorini shakllantirish va uni to‘ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni

Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligini qayd etish joiz. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati sezilarli darajada yaxshilandi. Biroq, amalga oshirilgan ishlar ko'lamiga qaramasdan mintaqalarda bu sohada hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni, xususiyatlari va yo'nalishlari majmuini ishlab chiqish, faoliyat samaradorligini baholash, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali mamlakat aholisining turmush farovonligi va milliy ishlab chiqarishning samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish, sharoitida xususiy tadbirkorlik korxonalarining uzoq vaqt faoliyat yuritishi yashovchanlik davri uning barqarorligiga bog'liq.

Shuning uchun xususiy tadbirkorlik korxonalarining moliyaviy barqarorligini taminlash uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, mahsulot assortimentini ko'paytirish, bozor segmenti asosida faoliyat yuritish asosida ilmiy muommalar tahlil qilish xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, ularning ixtisoslashuviga qarab maqbul joylashtirish va samaradorligini oshirish juda katta ahamiyatga ega.

Ushbu monografiyada raqamli iqtisodiyot sharoitida xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari tushunchasining mohiyati hamda barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ularning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish va infratuzilma korxonalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilashning

obektiv zaruriyati hamda xususiy tadbirkorlik korxonalarining daramodlarini oshirish ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini innovasion jarayonlar bilan o'zviy qo'shib olib borish va ularni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar o'z aksini topgan.

Monografiyada ilmiy tadqiqot ishida quyilgan maqsad va vazifalarni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining statistik ma'lumotlaridan, O'zbekiston Respublikasi **Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan**, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining statistik ma'lumotlaridan xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga doir Qonun, Nizom, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari hamda mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlaridan keng foydalanilgan.

Mazkur monografiya, albatta ayrim kamchiliklardan xoli emas. Shu bois muallif kitobxonlarning taklif va mulohazalarini mamnuniyat bilan qabul qilib, ularga o'z minnatdorchiligini izhor etadi

I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiy taraqqiyotning xilma-xil omillari ichida respublika fuqorolarining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish, insonning mustaqil xo‘jalik yuritish tashabbuskorligidan samarali foydalanishga imkon beruvchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sishi, raqobatbardoshlik va uni jamiyat gullab-yashnashiga olib keluvchi yagona kuch sifatida tan olish ko‘proq ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bozor islohotlarining hozirgi bosqichi iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni bo‘lib, unda tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Kelgusi yildan boshlab tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratiladi. Endi toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishi belgilanadi. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi”³.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor nazariyasiga javob bera oladigan ijtimoiy va iqtisodiy tushunchalar hamda atamalardan foydalanish qo‘l keladi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko‘p uchraydigan, lekin kam o‘rganilgan, ammo aniq ifodasi haqida bir to‘xtamga kelish shart bo‘lgan “tadbirkor” va “tadbirkorlik” ham shunday atamalar sirasiga kiradi. Iqtisodiy nazariya evolyusiyasi nuqtai nazardan “tadbirkorlik” kategoriyasini o‘rganish ahamiyatliroqdir. Bunda iqtisodiy kapitallarning iqtisodiy nazariyani modernizatsiyalashda tutgan o‘rnini asoslash kifoya.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining mehnatga yaroqli qismidan qariyb 50 % kichik biznes bilan band bo'lib, turli tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining milliy mahsulotdagi hissassi 33 %dan 66 % gacha, yalpi ichki mahsulotdagi hissassi esa 50 %dan 68 % gacha yetadi. Shu bilan bir vaqtda, hamma yerda kichik korxonalarning yangilari paydo bo'lib, ular soni ko'payib bormoqda va bu holat yaratilgan yangi muhit sharoitida o'zining samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Odatda, kichik biznes tadbirkorlik bilan ifodalanadi va bu jarayon uning hajmi kichikligini hisobga oladi. "Tadbirkorlik" va "tadbirkor" tushunchalari qadimgi davrdan boshlab rivojlanishga moyil bo'lib, har bir jamiyatda, mamlakatda takomillashib bordi. Qadimgi Rim qonunchiligida mashg'ulot, ish faoliyati, ayniqsa tijorat ishlari tadbirkorlik, deb yuritilgan. Tadbirkor bo'lib ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etuvchi shaxs, ijaraga beruvchi inson yuzaga chiqqan.

O'rta asrlarda "Tadbirkor" tushunchasi bir necha mazmunga ega bo'lib: tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi inson; paradlar, namoyishlar va turli ko'ngil ochar kechalarni tashkil qiluvchilar; yirik qurilishlar yoki ishlab chiqarish loyihalari bajarilishiga javob beruvchi shaxslar tushunilgan. XVII asrda tadbirkor odam deb, davlat bilan ma'lum bir hajmdagi ishni bajarish, yoki ma'lum bir mahsulotni avvaldan kelishilgan qiymati bo'yicha shartnoma asosida bajaruvchi shaxsga aytilgan. Shunday qilib, tadbirkor bo'lib mulk egasi hisoblanadi, uning faoliyati natijasidan oladigan foydasi yoki ko'radigan zarari uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsiz ishlashi bilan aniqlanadi.

"Tadbirkorlik" tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda birinchi marta Parijda 1732 yilda chop etilgan tijoratning umumiy lug'atida bayon qilingan. Tadbirkor, deb ishlab chiqarish va qurilishi obekti bo'yicha o'ziga majburiyat olgan odamni tushunishgan.⁴

⁴ Блинов А.О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. - М., Экономика, 1998.С. 7-9.

Shunday qilib, tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan birinchi tadbirkorlar bo‘lib uni tashkil qiluvchi insonlar, so‘ngra o‘zlarining mulklarini xavfga qo‘ygan mulk egalari hisoblanishgan. Shuning uchun ham “tadbirkorlik” tushunchasi mulk haqidagi tasavvur bilan bog‘lanib, tadbirkorning xo‘jalikka qo‘shadigan moddiy hissasi asosida qayd qilingan. XVII asr adabiyotlarida savdogarni tadbirkor, deb atashdi va uni moliyachiga qarama-qarshi qo‘ydi, XVIII asrda esa industrial xo‘jalikning rivojlanishi tufayli tadbirkor, deb ish beruvchini hisoblay boshlashdi.

Hozirgi paytda ilmiy adabiyotda «tadbirkorlik» tushunchasi, mohiyati har xil izohlanadi. Hamma uchun qulay bo‘lgan yoki an‘anaviy yondashuvga ko‘ra, tadbirkorlik – insonning qonun asosida faoliyat yuritishi uchun qayd qilingan ishlar va xizmatlarni bajarib, tizimli ravishda foyda ko‘rish uchun xavf asosida amalga oshiradigan mustaqil faoliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik – bu 1) insonlarni iqtisodiy faollik shakli, 2) bozor iqtisodiyoti institutlari, 3) innovatsiya jarayoni, 4) maksimal foyda olishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarning ma’lum tizimidir.

Amerikalik iqtisodchilardan K. Makonnell va S. Bryular fikri bo‘yicha tadbirkorlik – maxsus inson resursi, tadbirkor – yer, mehnat va kapitalarni yagona ishlab chiqarish jarayoniga jalb qiluvchi g‘ayratli novatordir. Kapitalistik bozor iqtisodiyoti, xususan, tadbirkorlik faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: 1) xususiy mulkchilik; 2) tadbirkorlik va tanlash erkinligi; 3) shaxsiy manfaatning ustunligi; 4) raqobat; 5) narx tizimiga yoki bozor tizimiga tayanish va 6) davlat rolini cheklash.

Y.I. Ivanov va F.M. Rusinovlar “tadbirkorlik” tushunchasini “...unga tegishli bo‘lgan qonuniyatlar qatorida amal qiluvchi iqtisodiyotning maxsuslashtirilgan sektori”⁵ deb ta’riflashga harakat qiladi. V.M. Yakovlev tadbirkorlikda: “Iqtisodiy faoliyat turi, bozor iqtisodiyoti sektori, innovatsion jarayonlar ta’rifini berishga qodir bo‘lgan”⁶ umuminsoniy ijtimoiy-iqtisodiy

⁵ Иванов Ю.И. Русинов Ф.М. Рынок, предпринимательство кадры. –М.: Экономикс, 1994. с. 5.

⁶ Яковлев В.М. Конструктивное предпринимательство. –М.: Алма-Пресс. 1994. с. 19-20

jarayonlarni qoplab oluvchi jarayonlar majmua” sini ko‘radi. Bu yerda muallif bozor iqtisodiyoti tizimini tashkil qiluvchi sifatida fikr yuritadi, ya’ni tadbirkorlik o‘zini namoyon qila oladigan ichki salohiyatga ega, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘lishini qayd qiladi. Yana uning fikricha, tadbirkorlikning o‘zak xususiyati – uni mulkka to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligidadir va bu yerda tadbirkorlik – mulkni o‘zlashtirish funksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, tadbirkorlik g‘oyalarni amalga oshiruvchi jarayon bo‘lib, bunga mehnat, kapital va yer jalb qilinadi. Va bu yerdagi asosiy maqsad foyda olish hisoblanadi.

Tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy xodisa sifatida iqtisodiy hayot sharoitidan kelib chiqadigan iqtisodiy, huquqiy, psixologik va tarixiy munosabatlar yig‘indisi hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni o‘zida gavdalantiradi.

Buning natijasida tadbirkorlik ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishadi, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish va iste’mol qilish bo‘yicha yangi munosabatlar shakllanadi.

Tadbirkorlikka nisbatan tamaddun nuqtai nazardan yondashib, Ye.V. Glushenko, A.I. Kapsov, Y.V. Tixanrovovlar shuni qayd qilishadiki, u insoniyat tamadduni yaratuvchiligining boshlanishi va uning zaruriy elementi hisoblanadi. Tadbirkorlik ijtimoiy aloqalar dunyosi bilan duch kelib, avval unga moslashadi, keyin undan foydalanishga harakat qiladi, so‘ngra o‘zini amalga oshirilishini istab uni rivojlantirishga harakat qiladi, xususiy barqarorligini ta’minlash maqsadida bir me’yorga keltiradi, so‘ngra yana ijtimoiy hayotga moslashadi va insonning qalb qo‘ridan sug‘urilib chiqadi va o‘zida uning in’ikosini aks ettirib, unga nisbatan teskari, yohud yuqoriga intiluvchi, yohud barbod qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi⁷. Tadbirkorlik tamadunning belgisi hisoblanib, insonlarni u yoki bu moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda amalga oshiradigan hamkorlikdagi harakatini, ya’ni odamlarni yashashi, hayot kechirishining barqaror kafolatini ta’min etishi uchun zarur bo‘lgan insoniy munosabatlarni tashkil etishni tavsiflaydi.

⁷Глушенко Е.В., Капсов А.Н., Тихонравов Ю.В. Основы предпринимательства. М.: Экономикс с. 16,17

Tadbirkorlikka bag'ishlangan konsepsiyalarning barchasini iqtisodiy, sotsiologik va ijtimoiy yondashuv doirasidagi konsepsiyalarga ajratib ko'rsatish mumkin. Ularni ajratish o'lchami bo'lib, bizning fikrimizcha, ishlab chiqarish jarayoni tahlili asos qilib olinadi, ya'ni uning moddiy tomoni yoki inson mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yoki insonni takror ishlab chiqarish jarayonidan iboratdir.

Ammo xo'jalik hayotdagi o'zgarishlarni tushuntirib beruvchi birinchi ijtimoiy g'oyalar asosan iqtisodiy fanlar doirasida yuzaga keldi. Tadbirkorlikning mohiyatini ochib berish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonidagi eng kerakli figura iqtisodiyot doirasida sodir bo'ldi.

Klassik iqtisodiy nazariya tomonidan rivojlantirilgan "Iqtisodiy odam" g'oyasi A. Smitga tegishli bo'lib, u insonlarning boyligi sabablarini o'rganish jarayonida taraqqiy etish, rivojlanish manbalarini pulda emas, balki samarali mehnatda ko'radi. Jamiyatning boyligi "Iqtisodiy odam" tomonidan ishlab chiqilayotgan oddiy tovarlarning mavjudligi bilan belgilanadi, u vaziyatdan kelib chiqib va ayriboshlashga tug'ma qobiliyati borligidan ratsional xarakat qiladi.

R. Kantilon savdo tabiatini o'rganish jarayonida 1725 yilda tadbirkor konsepsiyasini birinchilardan bo'lib ishlab chiqqan. U o'zining "Umuman savdo tabiati to'g'risida tajriba" kitobida tadbirkorlik funksiyasini kapitalistik funksiyadan ajratib ko'rsatadi va tadbirkorlikda ishbilarmonning gardkam faoliyat yuritishini ko'rdi. Ma'lum bo'lmagan daromadlar tadbirkorning boshqalardan keskin ajratib turadigan xususiyati hisoblanadi, chunki savdogarlar, fermerlar, xunarmandlar va boshqa mayda mulk egalari ma'lum narxda sotib oladi, ammo noma'lum narxda sotishadi, ya'ni o'z faoliyatlarini xavfga qo'yishadi⁸.

1797 yili fransiyalik K. Bado tadbirkor ma'lum bir intellekt – bilim va axborotlarga ega bo'lishi kerak. Uning fikricha, tadbirkor na faqat javobgarlikni his qiladi, balki o'z faoliyatini rejalashtiradi, nazorat qiladi, tashkil qiladi, korxonaga egalik qiladi⁹.

J.B. Seyning fikricha, tadbirkorlik foydasi – tadbirkorning xo'jalik jarayonida o'zi bilgan va boshqalar bilmaydigan narsadan oladigan daromadidir. U tadbirkorga

⁸ Carsuol A., Olm K., Eddy G. Entrepreneurship: Rastarch in guest of paradigm. – The Art and Science of Entrepreneurship. Cambrige, M.A. ballinger Publishing Co., 1986.

⁹ Herbert. Linla. The Entrepreneur. –N. Y. 1982

xos bo'lgan xususiyatlarni, ishlab chiqarish omillarini tashkil qilish, ularni boshqarish va tadbirkorning faol rolini ko'rsatib berdi.

Tadbirkorlikni tatbiq etishda paydo bo'lgan yangi bosqich D.Gelbreytning "Yangi industrial jamiyat" asari bilan bog'liq. Bu iqtisodiy rivojlanish ma'lum pog'onaga o'sishi sababli, ya'ni ishlab chiqarish individual o'sishdan yalpi standartlashgan shaklga o'tishi bilan tavsiflanadi. Ushbu vaziyatda bozorni asta-sekin o'rganish, talabni istiqbolashtirish, yangi texnologiya va materiallarni yaratish talab qilinadi. Yangi paradigmada boshqarish ratsionalizatsiyadan tashkiliy xulq tadbirkorligiga o'tish tushuniladi. Bu doimiy ravishda erishilgan darajani o'zgartirishdan, bo'lajak imkoniyatlar va xavflarni oldindan bilish, global muqobil harakat yo'llarini izlashdan iboratdir.

Tadbirkorlikning jamiyatni iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini aniqlash uchun jahon va mamlakatimizdagi iqtisodiy, ilmiy g'oyalardagi ilmiy xulosalarni mazmunan ko'rib chiqamiz (1.1-jadval)

1.1-jadval

"Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalari evolyusiyasi¹⁰

Davr vaqti	Tushunchalar mazmuni
O'rta asr	Tadbirkor tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi inson; ko'rgazmalar, namoyishlar yarmarkalar tashkilotchisi, qayta ishlab chiqarish va qurilish loyihalarini bajarishga javobgar shaxs
17 asr	Tadbirkor davlat bilan shartnoma tuzishda shartnoma qiymatini oldindan belgilaydigan shaxs. U shartnoma shartlarini bajarishda moliyaviy javobgarlikni to'la o'z zimmasiga oladi
1725 y.	Richard Kanton: Tadbirkor-tavakkalchilik sharoitida harakat qiluvchi odam

¹⁰ Yuldashev D. T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T. 2109

1797 y.	Karno Bodo: Tadbirkor-tadbirkorlik ishiga javobgar shaxs; u korxona egasi, uni faoliyatini tashkil etuvchi, nazorat qiluvchi, rejalashtiruvchidir
1803 y.	Batis Sey: Tadbirkorlik darajada kapital daromadidan farqlanadi
1876 y.	Fransis Uoker har kim o‘z tashkilotchilik qobiliyatlariga ko‘ra foyda olishi, kapital berib, bunga foiz olish farqlarini ajrata olishi kerak
1934 y.	Yozef Shumpeter: Tadbirkor - novator, ya’ni yangi texnologiyalarini ishlab chiquvchidir
1961 y.	Devid Makkeland: Tadbirkor - g‘ayratli, o‘rtacha tavakkalchilik sharoitida harakat qiluvchi odam
1964 y.	Piter Druker: Tadbirkor - yangi imkoniyatlardan foydalanilib, ko‘proq foyda oluvchi odam
1972 y.	Albert Shapiro: Tadbirkor - bu tashabbuskor, iqtisodiy – ijtimoiy mexanizmlarni tashkillashtiruvchi tavakkalchilik sharoitida harakatlar qilib, kutilgan muvaffaqiyatsizlikni to‘la o‘ziga oladigan odam
1983 y.	Gifford Pinsho: Tadbirkor - bu mavjud korxona sharoitida harakat qiluvchi, ya’ni korxona yaratuvchi tadbirkordan farqlanuvchi odam

“Tadbirkorlik” kategoriyasini ilmiy muomalaga kiritishda uni ilmiy nuqtai nazardan izohlashda R. Kantilop, K. Bode, I.X. Tyupen va Naytearlarning xizmati katta. Bu tushunchani fanga birinchi bo‘lib R. Kantiloza kiritgan. U tadbirkorlik bozor talabi va taklifi o‘rtasidagi farqni sezgan holda ish tutishdek foyda keltirish xususiyati ekanligini, bu arzonga olib, qimmatga sotish uchun imkon berishni anglagan. Bu imkoniyatdan foydalana olganlarni, tavakkalchilik bilan ish tutuvchilarni “tadbirkor” lar deb bilgan. Demak, R. Kantilonning fikricha, tadbirkor-bozor imkoniyatlarini ko‘ra oladigan shaxs. U foyda olish uchun bu imkoniyatlardan tadbirkorlik bilan foydalanadi¹¹.

¹¹ Herbert. Linla. The Entrepreneur. –N. Y. 1982

K. Bodo¹² (fizokrat) bu borada o‘tmishdoshlaridan o‘zib ketdi. Uning uqtirishicha, tadbirkor ma’lum intellektga, ya’ni, turli axborotlar va bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

I.X. Tyunen¹³ esa, tadbirkor nafaqat axborotga, balki o‘z kapitaliga ham ega bo‘lishi kerak, deydi. U qayd etganidek, agar kapital butun iqtisodiyotga asos bo‘lsa, foyda tadbirkorlikning yutug‘i va ishlab chiqarishni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Bu kabi qarashlar XX asr boshlarida F. Nayt tomonidan ham rivojlantirilgan. U chuqur tadqiqot asosida “tavakkalchilik” va “noaniqlik” kategoriyalari orasidagi farqni asoslagan.

Tadbirkorlik mohiyatini tadqiq etish bilan bog‘liq ikkinchi yo‘nalish A. Smit, D. Rikardo, Dj.S. Malya va boshqalarning qarashlari asosida shakllandi. Ushbu yo‘nalish namoyandalari tadbirkorlikning vazifasini amalda ajratmaganlar, ishlab chiqarish va kapital qo‘yishni avtomatik ravishdagi jarayon, har qanday ko‘ra bilish tavakkalchilikni baholashda muhim qarorlar qabul qilishni talab etmaydi¹, deb hisoblashgan. Uchinchi yo‘nalish J.B. Sey konstitutsiyasi sifatida tanilgan, keyinchalik A. Marshal va J. Shumpeter¹⁴ ishlarida o‘z aksini topgan.

J.B. Sey¹⁵ tadbirkorlik funksiyasini korxonaga kapitalni taqdim etish funksiyasini ajratgan va tadbirkor qobiliyatini ishlab chiqarish omillarini birlashtirishni oddiy xo‘jalik faoliyatida ko‘rgan.² U tadbirkorlik daromadini ushbu faoliyat maqsadi va natijasi deb bilgan. Ana shunday yo‘nalishda tadbirkorlikni ishlab chiqarish asosiy omillarini eng yaxshi birlashtirish usuli (yer, kapital, mehnat)³, ishlab chiqarish omillarining o‘zaro bog‘liqligini samarali muvofiqlashtirish ishi, hattoki, ishlab chiqarish omilining to‘rtinchisi⁴ deb aniqlagan. Ishlab chiqarish omillarini birlashtirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy mohiyati sifatida A. Marshall asarlarida rivojlantirilgan. Shu bois

¹² Сей Ж.Б. Трактат политической экономии. –М.: 1896. с. 17, 24.

¹³ Тюнен И. Изолированное государство.-М., 1926.-332 с.

¹⁴ Маршалл А. Принципы политической экономии. -М.: Дерикт Медиа, 2012.-2127с

¹⁵ Сей Ж.Б. Трактат политической экономии. –М.: 1896. с. 17, 24

tadbirkorlikning asosiy vazifasi ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishdir. Tadbirkorlar yoki biznesmenlar ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish doirasida butun xo‘jalik tavakkalchiligini o‘zlariga oladilar. “Ular ishlab chiqarishga zarur bo‘lgan kapital mehnatni birlashtiradilar, ishlab chiqarishning umumiy rejasini tuzadilar va loyihalashtiradilar, uning qo‘shimcha qismlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar”¹⁶. Xo‘jalik yuritishni boshqarish murakkablashgani sari uning samaradorligini oshirish va insoniy ehtiyojni to‘la qondirish maqsadida tashkiliy vazifa ishlab chiqarishda tashkiliy ishlab chiqarishdan ajrala boshlaydi va maxsus katlam vositachi-tadbirkorlar davrasiga ajraladi. A. Marshall ta’rifi bo‘yicha tadbirkor keng ma’noda menejerdir. Menejer vazifasining ajralib chiqishi shu bilan bog‘likki, chunki, “ishchi kuchi” yuqori darajada tijorat yuritishga ixtisoslashgan. Tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan J. Shumpeter o‘zining iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida J.B. Sey va A. Marshall g‘oyalarini kengaytirgan. U haqiqatda, birinchilardan, g‘arb iqtisodiy nazariyasida iqtisodiy tizimga dinamik va rivojlanuvchi kuch sifatida qaradi.

Ro‘y berayotgan jarayonlarni J. Shumpeter mutanosiblik holatini saqlashning ayrim tendensiyalari deb tushungan. Mutanosiblik-bozor iqtisodiyotini ideal holati real uzoq muddatli oraliqda umuman bo‘lmaydi. Shunday qilib, tadbirkorlikni aniqlashda u iqtisodiy rivojlanish manbai sifatida yondashgan. Korxona doirasida ishlab chiqarish omillari yangi birlashishni amalga oshirilishi tadbirkorlik faoliyatini mazmundorlik tomoni hisoblanadi.¹⁷

Demak, J. Shumpeter¹⁸ tadbirkorlik faoliyatining mulkchilik kategoriyasidan farqlagan va uni innovatsiya faoliyati bilan bog‘lagan. Uning konsepsiyasi tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyatini va tarixiy missiyasini aniqlashda, tadqiq etishda eng samarali yo‘nalish bo‘ldi.

J. Shumpeterning tadbirkorlikka bo‘lgan qarashlarini avstraliyalik iqtisodchi olim, Nobel mukofoti lauriati F. Fon Xayek rivojlantirdi. XX asr

¹⁶ Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. Т. 1, с. 377.

¹⁷ Шумпетер Й. Теория экономического развития. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1992, 169-170, с.183.

¹⁸ Шумпетер Й. Теория экономического развития. Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1992, 169-170, с.183.

boshlarida tadbirkorlik tadqiqotlari natijasida yana bir yo‘nalish paydo bo‘ldi. Uning asoschilari nemis tarixiy maktabi namoyandalari M. Veber va V.Zombratlar edilar. M. Veber tadbirkorlikni fikrlash qobiliyati bilan bog‘lab, u kasb-hunari doirasida doimo qonuniy foyda olishga harakat qiladi, deydi.¹⁹

Shu ma’noda tadbirkorlikning mehnatini baholasa yondashish ham takomillashtirib berildi. Bu davrda P. Druker, B. Karlofa va B. Santo konsepsiyalari ancha qiziqarli xisoblanadi. P. Druker o‘z mulohazalarida shunday fikrga keldiki, zamonaviy texnologik yangiliklar ko‘p katta korxonalarning jon saqlashiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitda barqarorlikni ta’minlash va oldingi pozitsiyada bo‘lish uchun harakatdagi korxonalar yangi sharoitda jonlanish san’atini va muvaffaqiyatli yashashga o‘rganishlari kerak. Uning fikricha, bu faqat rahbarlar samarali tadbirkor bo‘lsagina amalga oshishi mumkin²⁰.

U muomalaga “tadbirkorlikni boshqarish”, “tadbirkorlik korxonalari”, “tadbirkorlik jamiyati” tushunchalarni kiritdi.

Uningcha, “tadbirkorlikni boshqarish” tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin;

- tashkilotning yangilikka moyilligi zarurati va o‘zgarishlar natijasini tahdid sifatida emas, yaxshi imkoniyatlar yaratish;

- doimiy o‘zgarishlarga tayyorgarligi, kompaniyalarning novatorlik va tadbirkorlik sohalari harakatini, samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash;

- tashkiliy tuzilishga, kadrlar bilan ta’minlash, ularni boshqarish, mehnat xaqi, rag‘batlantirish va mukofatlashga nisbatan ma’lum jihatdan siyosat olib borish;

- tadbirkorlikni boshqarishda nimani qilmaslik kerakligini bilish zarur²¹.

P. Drukerning fikricha tadbirkorlik innovatsiyani boshqarish jarayoni bo‘lib, texnologiyalar o‘zgarishiga tasir ko‘rsatadi. U global masala sifatida “tadbirkorlik jamiyati” g‘oyasini ilgari suradi va uqtiradi, qayerdagi, barqaror va

¹⁹ ВеберМ. Пратестанская этика и дух капитализма. Пер. с немецкого. М. : Прогресс, 1990. с. 85.

²⁰ Друкер П. Рынок: Как выйти в лидеры. Практика и принципы – М. : 1992. с. 191.

²¹ Друкер П. Рынок: Как выйти в лидеры. Практика и принципы – М. : 1992. с. 198.

normal holat bo'lsa, innovatsiya va tadbirkorlikni rivojlantiradi. B. Karlovning tadbirkorlikka yangicha yondashuvi asosida iste'molchilar ma'nfaatlari bilan kapital va resurslardan samarali foydalanishda muvofiqlik qobiliyati yotadi²².

Bu biznesni boshqarish, kompaniya va kapitalga ega bo'lish bilan kifoyalanib qolmaydi. Tadbirkorlik biznes olib borish va undan foydalanish qobiliyatidir.

B. Karlof konsepsiyasida tadbirkorlik imkoniyatlari mavjud. Unda ehtiyojlarni qondirishning samarali yangi yo'llarini izlash ilgari suriladi²³. Tadbirkorlikning bunday ifodalanishi ko'p jihatdan ijodkorlikdagi umumiylikdir:

“Ijodkorlik – oldin ma'lum bo'lmagan bilimdagi diskret elementlarni yangi kombinatsiya birikmasidir”²⁴.

Kelajakni ko'ra bilishning asosiy usuli ssenariyadir. B. Karlof fikricha, bu shunday imkoniyatdirki, birinchidan, istiqbol va takliflar asosida aniq rivojlanish, yangi yo'nalishlarni belgilash, ikkinchidan, voqealik rivojlanishining muqobil variantlariga ochiklik yaratish va strategik fikrlash, ijodiy manzaralarga foydalanish sifatida asos qilib olish. B. Samto “...hozirgi xo'jalik yuritish korxonalari muvaffaqiyatga erishishi uchun ularga innovatsion menejer rahbarlik qilishi kerak”, degan fikrdan kelib chiqadi²⁵.

Innovatsion menejer o'z maqsadiga tashkilotning ichki qarama-qarshiliklarini rivojlantirish vositasi asosida erishadi. Uning strategiyasi asta-sekin kengaytirilgan konsepsiyaga o'tish bo'lib, keyinchalik yuqori maqsad, ya'ni bozor ekspansiyasi va ijtimoiy-texnik rivojlanishga tezroq erishishdir. Uning asosiy taktikasi shundan iboratki, muhim o'rinda turgan kadrlarni o'zgartirish, muvaffaqiyatli va mustahkam rivojlanib kelayotgan funksional

²² Карлоф Б. Деловая стратегия: Консепсия, содержание, символы. Пер. с англ. М.: 1992, с. 176.

²³ Карлоф Б. Деловая стратегия: Консепсия, содержание, символы. Пер. с англ. М.: 1992, с.227.

²⁴ Карлоф Б. Деловая стратегия: Консепсия, содержание, символы. Пер. с англ. М.: 1992, с.227.

²⁵ Санто Б. Фелософия предпринимательства. Проблемы теории и практики управления. М.: 1999. №3, с. 101

tizimlarga asoslanish, shu bilan birga ozroq foyda va afzallikka erishib, soʻngra tashkilotni kuchli holatga oʻtkazish.

“Tadbirkorlik” kategoriyasiga har xil qarashlar va fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- birinchidan, tadbirkorlik – har kanday, iqtisodiy informatsiyaning universal umumiy iqtisodiy vazifa boʻlib, odatda, boshqa turli faoliyatlarni yuritishda birga qoʻshib olib boriladi. Mulkdorning huquqiy holati tadbirkorlarning aniq va majburiy xususiyatiga ega boʻlmaydi;

- ikkinchidan, tadbirkorlikning vazifasi, asosan, shundan iboratki, ishlab chiqarishni isloh qilish yoʻli bilan yangi tovarlarni ishlab chiqarishda novatorlikdan yangi xom ashyo manbalari, sotish bozorlari, ishlab chiqarishda qaytadan qurish va hakerlardan foydalanishdir;

- uchinchidan, tadbirkorlik uchun xoʻjalik-siyosiy muhiti alohida ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik muammosiga hozirgi iqtisodchi olimlarning yondashishlari eʼtiborga loyiq. Ularning tadqiqotlari asosida tadbirkorlik mohiyatini tahlil qilgan holda quyidagi yoʻnalishlarga boʻlish mumkin:

birinchi yoʻnalish – tadbirkorlik foyda olish uchun yoʻnaltirilgan mustaqil iqtisodiy faoliyat, tashabbuskorlik;

ikkinchi yoʻnalish - tadbirkorlik faoliyatining maqsadini foyda olishni inkor qilmay, asosiy belgi tadbirkorlik mohiyatini aniqlovchi sifatida resurslarni yangi kombinatsiyalarini amalga oshirishda munosabatlar yigʻindisiga asoslangan holda ishlab chiqarishni yuqori samaradorligiga erishish²⁶;

uchinchi yoʻnalishga D.V. Busigin²⁷, V.D. Kamayev²⁸, I.N. Gerchikova²⁹, F.M. Rusinov³⁰ va boshqa olimlarning ishlarini kiritish mumkin. Ularning tadqiqotlarida tadbirkorlik oddiy mehnat faoliyati emas, balki ijodiy faollik sifatida aks ettirilgan.

²⁶ Экономика и организация рыночного хозяйства. М.: Прогресс, 1995. с.155.

²⁷ Бусыгин Д.В. Предпринимательство: Начальный курс. М.: 1992. с. 7 б.

²⁸ Камаев В.Д. Экономика и бизнес. Под. ред. Камаева В.Д. – М.: МГТУ, 1993. с.8.

²⁹ Герчикова И.Н. Менеджмент. М.: ЮНИТИ, 2004. с.22

³⁰ Русинов Ф.М. Возрождение предпринимательства в России. Май Коп: 1999. с. 27 – 28.

Xulosa qilib aytganda, ushbu mualliflar tadbirkorlikni o‘zaro uzviy bog‘liq uch komponent tarzida ajratishgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mamlakatlar olimlarining tadbirkorlik nazariyasi va amaliyoti, uning rivojlanish bosqichlari tushunchasi, mohiyati va ifodalari O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga ko‘rsatib o‘tilgan bir qator yondashishlar O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy–iqtisodiy sharoitini va iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini e‘tiborga olmaydi.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida tadbirkorlik muammosini iqtisodchi olimlarimiz darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va ilmiy tadqiqotlari natijalari mujassamlashgan risolalarida bayon etganlar. Akademiklar K.X. Abdurahmonov, S.S. G‘ulomov, I.I. Iskanderov, M.SH. Sharifxo‘jayev, iqtisod fanlari doktorlari, professorlar Yo.A. Abdullayev, E.X. Maxmudov, N.M. Maxmudov, Z.Y. Xudayberdiyev va boshqalar shular jumlasidandir³¹.

O‘zbekistonlik olimlardan S.G‘ulomov, A.O‘lmasov, Yo.Abdullayev, X.Abulqosimov, M.Qosimova, X.Xo‘jaqulov, E.Egamberdiyev, X.Boyev, D.Tojiboyeva, Sh.Shodmonov, A.Vahobov va boshqalar o‘zlarining ilmiy ishlari va darsliklarida turli shakl va mazmunda ta’rif berib o‘tganlar. Xususan: akademik S.G‘ulomovning ta’rifiga ko‘ra “Tadbirkorlikning muhim xususiyatlari - uning harakatchanligi va jo‘shqinligidir. Tadbirkor o‘zining fikri bo‘yicha muvaffaqiyatga olib keluvchi yangi harakat usullarini, mahsulot turini va texnologiyani, iste’molchilar doirasini, mahsuloti va ko‘rsata-digan xizmatining sifatini yaxshilash yo‘llarini tinimsiz k,idiradi. Tadbirkor shunday insonki, u pul mablag‘lari, materiallar va ishchi kuchini jamlashtirib (yangi mahsulot, yangi biznes, yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi yoki ishni tashkil etishning takomillashganroq usulini yaratadi”³², prof. Yo.Abdullayev, prof. F.Karimov ta’rifiga ko‘ra esa “tadbirkor – bu bozor iqtisodiyotida xo‘jalik

³¹ G‘ulomov S.S., Ahmedov D.K., Boyev X. Kichik va xususiy tadbirkorlik asoslari. - T.: 1996.-70 b. Abdullayev YO. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari 100 savolga- 100 javob. T.: “Mehnat” 2002. - 156 b. M.SH. Sharifxo‘jayev, YO Abdullayev Menejment T.:”Moliya”. 2002-47-b. O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi.-T. 1995. -528b.

³² G‘ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.- T.:”O‘qituvchi”. 2002-32-b.

yuritishning asosiy subekti hisoblanadi. Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham, ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkinki, bu kishilar o'zlari ixtiyorida bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ish kuchi bilan, bu ish kuchini sotib olish va xo'jalik faoliyatida undan foydalanish yordamida birlashtiradilar"³³.

Tadbirkorlikni iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish, uning nazariy jihatlarini chuqurlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish borasida kelajak uchun tavsiya va takliflar ishlab chiqish, milliy, iqtisodiyotimizni kuchaytirishga ta'sir etish yo'llarini aniqlash olimlarimiz oldida turgan navbatdagi dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244 sonli Farmoni qabul qilinib Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik subektlari tomonidan yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ular uchun tartibga solish yukini kamaytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan"³⁴.

Iqtisodiy nuqta nazardan kichik biznes maxalliy bozorga tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ayirboshlash uchun taklif etish orkali daromad topish faoliyati bilan shugullanuvchi katlamini ifodalaydi. "Tadbirkor" va "biznesmen" kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohalari ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. "Biznes" tushunchasi "tadbirkor"dan ancha kam ma'noga ega deb qaraladi. G'arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida – "biznes" - jamiyatning talab va xoxishlarini qondirishga karatilgan ishlab chiqarish tizimi" deb tushuntiriladi.

³³ Abdullayev YO, Karimov F. "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari".- T.: «Mehnat». 2000. – 9-b.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244-sonli Farmoni

Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari orasidagi munosabatlarni kamrab oladi va faqat ishbilarmonlarning emas, balki iste'molchilarning, yollangan ishchilarning, davlat tizimi xizmatchilarining ham xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda, biznes so'zining sinonimlari bo'lib, ma'lum ma'noda tijorat, savdo-sotiq kabi tushunchalar hisoblanadi. Umumiy ko'rinishda biznes - bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faolligidir.

Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi. "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunga asosan tadbirkorlik - fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqoroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan hamda o'zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, tadbirkor to'la yoki qisman moddiy mablag'ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan firma (tashkilot, shirkat, korxona) davlatimizdagi taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi.

Bugungi kunda keng rivojlanmagan kichik businessiz zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo'lmaydi. U bir tomondan qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo'ladi va shu nuqtai nazardan iqtisodiyotni bozor konyunkturasi o'zgarishlariga, moda va istemolchilar didi tez- tez almashib turishiga iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, kichik korxonalarning katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularga xos bo'lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Kichik biznesni rivojlantirish bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishga va hududiy monopolizmga barham berishga, raqobat muhiti vujudga kelishi va kengayishiga, ilmiy texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, eksport salohiyati yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznesning yana bir xususiyati nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o'rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruhlar

daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga, iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Kichik biznesning ijtimoiy vazifalari ham muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes kishilarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ijodkorlik salohiyatlarini namoyish etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Unda yirik korxonalardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilar manfaatlari o'rtasida bog'liqlik yaqqol ko'rinib turadi.

Kichik biznesning yana bir muhim ijtimoiy vazifasi shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari: ayollar nogironlar, pensionerlar va boshqalarni ish bilan ta'minlaydi hamda ularning mehnatidan keng foydalanadi. Yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish tajribasi ortishiga sharoit yaratadi.

Bizning fikrimizcha ham tadbirkor ma'lum miqdorda o'zining sarmoyasiga ega bo'lmasligi ham mumkin, ammo u iqtisodiyotning u yoki bu yo'nalishida yangilik yaratish bo'yicha g'oyalarga ega, bu g'oyalarni amalga oshirishning optimal yo'llarini biladigan shaxs bo'lishi mumkin. Bunday holda uni sarmoya bilan ta'minlasa, u o'z g'oyasini amalga oshirish yo'llarini biladi.

Ushbu ta'riflarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ularda tadbirkorlikning ichki mohiyatini ochib beruvchi bir qator yondashishlar mavjud bo'lib, bozor iqtisodiyoti talablariga ham mos keladi. Masalan, foyda olishga qaratilgan faoliyat ekanligi, bandlikni ta'minlash vositasi ekanligi, bozorni to'ldirishi va h.k.lar. Nazarimizda, mualliflarning "Tadbirkorlik" tushunchasiga bergan ta'riflarining hozirgi sharoitga va bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelishi, uning iqtisodiy mazmunini ochib berishga harakat qilganligidan dalolat berib turibdi. Barcha berilgan ta'riflarning ustuvor tomonlari mavjud, albatta. Shuning bilan birga ma'lum kamchiliklari ham mavjud. Masalan: Yo.Abdullayev uning bandlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida tushinib ilmiy ta'rif berishgan, X.Abulqosimov bergan ta'rifda esa

tadbirkorlik aholining turmush farovonligini oshiruvchi omil ekanligi e'tibordan chetda qolgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz “tadbirkor” va “tadbirkorlik” tushunchalariga quyidagicha ta'rif beramiz:

“Tadbirkor — yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida muntazam ravishda faoliyat olib boruvchi insondir”. “Tadbirkorlik— qonun xujjatlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida foyda (daromad) olish, bandlikni ta'minlash, bozorlarni mo'l-ko'lligini oshirishga xizmat qiluvchi tashabbuskor faoliyat hisoblanadi” .

Bir so'z bilan aytganda, yuqoridagi ta'rifda tadbirkorlikning har uchala jihati (bozorlarni to'ldirish, foyda (daromad) olish, bandlikni ta'minlash) ham mujassam holda ta'riflangan.

1.2. Xususiy tadbirkorlik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Kichik tadbirkorlik subektlariga mustaqillik berish ular faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biridir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'kidlaganidek, “Byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Jumladan, 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini

yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o‘zi yetarli emas.”³⁵ – deb bejizga ta’kidlamadilar.

Kichik biznes subektlari xo‘jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, iqtisodiyotda turli mulk shakllarining teng huquqlik va sog‘lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi. Kichik tadbirkorlik subektlari o‘zlari yetishtirgan mahsulotiga egalik qilishiga, o‘zlariga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishligi, mulkka bo‘lgan egalik hissiga ko‘ra bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la mos tushadi.

Kichik biznesning mamlakatda bandlik muammosini hal etish, bozorning mo‘l-ko‘lligini ta’minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, bu sohaning rivojlanishiga alohida e’tibor berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, bu e’tibor kichik tadbirkorlikning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ya’ni:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olishi;
- dastlabki sarmoya xajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;
- tez orada yangi ishchi o‘rinlari barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko‘maklashish imkoniyati;
- biznes egasining (tadbirkorning) vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Bunga ko‘p jihatdan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr

mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznesni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan harakterlanadi. Kichik tadbirkorlik subektlariga mustaqillik berish ularning faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini amalga oshiradi.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi: ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilindi; kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda; kichik tadbirkorlik subektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda; tadbirkorlarni Davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan va xabardor qilish tartibi joriy etildi; birja savdolari orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga qulay shart-sharoit yaratildi; mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash soddalashtirildi; soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari ko'rildi; statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi; kichik tadbirkorlik subektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi; ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning huquqlari va manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida iqtisodiyotning bu tarmog'i tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni, ish bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. 2021 yil 1 yanvar holatiga YaiMda kichik tadbirkorlikning hissasi 53,9 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi

sanoatda 19,9 foizni, qishloq ho‘jaligida 16,1 foizni, savdoda 37,8 foizni, qurilishda 6,4 foizni 54,9 foizni tashkil etdi³⁶.

Bizning fikrimizcha, kichik biznesni rivojlantirish sohasida mavjud ushbu muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining bu sohani qo‘llab - quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday konsepsiyaning asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o‘zgarishlar yotmog‘i lozim.

Bizning fikrimizcha, kichik biznesni rivojlantirish konsepsiyasida asosiy e‘tibor birinchi navbatda iqtisodiy salohiyatga ega faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subektlarini qo‘llab - quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo past rentabelli sohalarning rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy - iqtisodiy siyosati yo‘nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo‘jalik tuzilmalarini rag‘batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati va investitsion xatarlarni sug‘urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo‘l ochuvchi sharoitlarni ta‘minlash vazifalariga qaratilmog‘i kerak.

Respublikamizda banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratilmoqda. (1.2-jadval)

1.2-jadval

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar³⁷ (mlrd so‘m)

Hududlar nomi	2018 yilda	2019 yilda	O‘tgan yilga nisbatan, foizda
----------------------	-------------------	-------------------	--------------------------------------

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. T. 2021

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2019 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. T. 2020

Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 063,2	1 718,6	161,6
Andijon viloyati	1 747,9	2 457,7	140,6
Buxoro viloyati	1 966,0	3 286,9	167,2
Jizzax viloyati	976,5	2 644,3	270,8
Qashqadaryo viloyati	1 185,0	2 775,4	234,2
Navoiy viloyati	1 011,3	2 330,5	230,4
Namangan viloyati	1 111,4	2 936,1	264,2
Samarqand viloyati	2 507,7	4 392,3	175,1
Surxondaryo viloyati	1 152,0	2 570,4	223,1
Sirdaryo viloyati	640,3	2 483,9	387,9
Toshkent viloyati	1 954,0	3 425,0	175,3
Farg‘ona viloyati	1 977,5	3 227,5	163,2
Xorazm viloyati	1 520,0	2 275,2	149,7
Toshkent shahri	11 836,0	18 906,4	159,7
Jami	30 648,8	55 430,0	180,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tijorat banklari tomonidan kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar miqdorini tahlil qiladigan bo'lsak. Respublika bo'yicha taqdim etilgan kreditlar bir yilda 80,9 foizga ko'paydi³⁸.

1.3-jadval

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar doirasida 2018-2019 yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlar³⁹ (mlrd so'm)

Hududlar nomi	2018 yilda	2019 yilda	O'tgan yilga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	177,8	397,0	223,3
Andijon viloyati	344,7	584,1	169,5

³⁸ O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. T.2020

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. T.2020

Buxoro viloyati	201,6	422,5	209,6
Jizzax viloyati	165,8	405,5	244,5
Qashqadaryo viloyati	192,3	652,9	339,4
Navoiy viloyati	195,6	511,5	261,5
Namangan viloyati	281,4	991,2	352,2
Samarqand viloyati	233,7	587,8	251,5
Surxondaryo viloyati	183,6	551,2	300,2
Sirdaryo viloyati	95,8	468,2	488,8
Toshkent viloyati	112,0	556,4	497,0
Farg'ona viloyati	266,5	707,7	265,5
Xorazm viloyati	239,0	421,9	176,5
Toshkent shahri	49,1	303,1	617,0
Jami	2 739,0	7 560,9	276,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar doirasida 2018-2019 yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdorini tahlil qiladigan bo'lsak. Respublika bo'yicha taqdim etilgan kreditlar bir yilda 176,1 foizga ko'paydi⁴⁰.

Bu esa ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlash imkonini berdi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan band bo'lganlar sifatida ro'yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni esa bir million nafardan oshib ketdi.

O'zbekistonda boshlanayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida xo'jalik yuritish mexanizmining samaradorligini oshirishning qo'shimcha rezervlarini qidirib topish hamda, mamlakatning jahon hamjamiyatiga kirib borishiga imkon yaratuvchi sharoitlarni yaratish vazifalari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston uchun ma'qul bo'lgan iqtisodiyotni sog'lomlashtirish usullari esa birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zaruriyatiga borib taqaladi.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim masalalaridan biri, bu - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari tomonidan mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini keskin oshirish, bandlik masalalarini hal qilish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda milliy farovonlikni ta'minlashdan iboratdir. Chunki, yirik ishlab chiqarish ob'ektlariga qaraganda kam sarmoya talab qiladigan hamda turli o'zgarishlarga moyil bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari mahsulot turlarini yangilash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va shu bilan birga, bozor kon'yunkturasining beqaror hamda vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan iqtisodiy inqirozlari sharoitiga tez moslashuvchandir.

Shuni ta'kidlash joizki, makroiqtisodiy va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida oxirgi yillarda kichik tadbirkorlikning rivojlanishida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Uning kelgusida ham jadal sur'atlar bilan rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor vazifalaridan bo'lib qoladi. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlamasdan barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy soha muammolarini hal etish mumkin emas.

O'tgan davr ichida, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotning mazkur sohasiga doir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Qabul qilingan farmonlar va qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tomon yuz tutishida katta o'rin egalladi. Bu hujjatlar ham, o'z navbatida, yil sayin hayotga mos ravishda o'zgartirilib, kengaytirilib borilmoqda. Bularning barchasi kichik korxona va xususiy tadbirkorlarning ko'payishi, erkin va keng faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

Demak, respublikamizda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ko'lamini xorijnikidan qolishmaydi.

Ilmiy tahlillarimiz ko'rsatishicha, hozirgi kunga qadar mamlakatimizda davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirib kelindi:

- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun lozim bo'lgan huquqiy-me'yoriy asos yaratildi;

- kichik biznesning rivojlanishida ustuvorliklar belgilandi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning Dasturi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda;

- kichik biznesning rivojlanishiga yordam beruvchi bozor infratuzilmasiga asos solindi;

- imtiyozli soliq, subsidiyalar, davlat va budjetdan tashqari fondlardan beriladigan imtiyozli kreditlar, xalqaro moliya institutlari kreditlarini jalb etish kichik biznes rivojlanishini rag'batlantiradi;

- huquqiy va jismoniy shaxslarga xorijiy va milliy valyutada mikro kredit berish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

Tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun mamlakatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Kichik biznesni ustuvor rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy bazasi yaratilgan, bozor infratuzilmasi institutlari shakllangan, bank-moliya tizimi takomillashmoqda, valyuta bozori erkinlashtirilmoqda. Mamlakatning qulay geografik joylashuvi, mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy va boshqa resurslarning mavjudligi ancha keng xo'jalik faoliyati turlari bilan shug'ullanish imkonini beradi.

1.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi va undan foydalanish samaradorligini oshirish

Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga imkon yaratib beruvchi asosiy sharoitlardan biri-bu raqobat muhitini yaratish va xo'jalik yuritish subektlariga iqtisodiy erkinlik berishdir. Muammoning mohiyatini bunday tushunishning o'zi hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-xususiy tadbirkorlikning tobora o'sib borayotgan ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Iqtisodiyotning aynan shu tarmog'i qobiliyatli va ishbilarmon odamlarni tanlab olishning samarali tizimini ifoda etadi, zaruriy raqobat muhitini yuzaga keltiradi, yirik xo'jalik tuzilmalari tomonidan yechilishi qiyin bo'lgan bir qator muammolarni tez orada yechishga imkon yaratadi.

Keyingi yillarda zamonaviy bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda yirik korxonalar avvalgi o'zlarining ichki bo'linmalari bajargan ko'p funksiyalardan voz kechish va bu funksiyalarni kichik korxonalarga berish jarayoni kuzatilmoqda. Aynan shu sabablarga ko'ra yirik sanoat korxonalari soni qisqarib, kichik korxonalar soni o'sib bormoqda. Bu jarayon bozor iqtisodiyotini dinamik, harakatchan, yangiliklarga hozirjavob, bozordagi talab va uning o'zgarishiga tez moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Kichik biznes sohasida band firmalar ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan xarakterlanadi. Ular faoliyati strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

birinchidan, yuqori texnologiyali rivojlanayotgan firmalar raqobat kurashi bo'lishidan manfaaddor emas. Shu sababli ular bozordagi yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga harakat qilib, tor darajada ixtisoslashgan mahsulot ishlab chiqarishga intiladilar.

ikkinchidan, bunday firmalar, masalan, elektronika bilan shug'ullanuvchi firmalar, yirik korxonalardan butlovchi qismlarni sotib olish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga intiladilar.

uchinchidan, ko'pchilik firmalar ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirish maqsadida yo bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoki bir turdagi texnologiyaga ixtisoslashadilar. Ular ana shu mahsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning talabiga moslashga harakat qilishadi. Yirik korxonalarga esa keng istemolchilarning talabini qondirishga mos bo'lgan standart mahsulotlarni ishlab chiqarish xos. Kichik korxonalarning yirik korxonalardan farqi va afzalliklari ham shundadir.

to'rtinchidan, deyarli barcha kichik korxonalar mustaqillikni saqlab qolishga intilib, tashqaridan mablag' jalb etmaslikka harakat qiladilar. Mutaxassislarning fikricha, kichik firmalar mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanib borishi bilan mustaqillikka va o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga harakat qiladilar.

Yuqorida bayon etilganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki,

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalari bilan raqobatbardoshlik darajasi ko'tarilishiga imkon beruvchi eng muhim omillardan biri kichik korxonalarning butun bir tarmog'ini vujudga keltirishga imkon beruvchi qulay shart-sharoitlarni yaratishdirki, bunday korxonalar yigindisi raqobatli bozor muhitini yaratishga imkon bersin.

Demak, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarga alohida e'tibor qaratish, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etishini, shular asosidagina (resurslarni tejab, sifatli mahsulot chiqarish yo'li bilan) iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkinligini unutmaslik kerak. Shunday ekan, mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rahbarlari fan va texnika sohasidagi eng so'nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining makroiqtisodiy va mintaqaviy tendensiyalarini iqtisodiy tahlil etish maqsadida kichik biznesni mintaqalarda rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy modelini ishlab chiqamiz. Bunda makroiqtisodiy tendensiyalarning ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy va siyosiy jihatlari hamda mintaqalar rivojlanishining kuchli va zaif imkoniyatlari baholanadi; kelgusi rivojlanishning xavf-xatarlari turkumlashtiriladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kichik biznes rivojlanishining strategik vazifalari sifatida:

- eng muhim ustuvor yo'nalishlar rivojini rag'batlantirish; salohiyatlilarga qulayliklar yaratish;
- tarmoq va hudud rivoji uchun zarur, ammo rentabelligi past bo'lgan subektlarni qo'llab - quvvatlash;
- yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga ixtisoslashuv;
- yirik korxonalar bilan kooperasiyalashuv;
- iste'molchilar talabiga moslashuv;

➤ mustaqil tadbirkorlik muhitini mustahkamlash kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda mintaqalarda ishlab chiqarishni texnik jihatdan muntazam modernizasiya qilib borish uchun samarali rag‘batlantirish tizimini yaratishimiz zarur. Bu borada modernizasiya qilish va yangilash jarayonlarini jadallashtirish uchun korxonalarning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan sarmoyalarini uch yilga daromad (foyda) solig‘idan, o‘rnatilgan va ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan yangi uskunalarni esa mulk solig‘idan ozod qilish bu masalaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlikning huquqiy manfaatlarini himoyalash hamda qo‘llab-quvvatlashning tobora mustahkamlanishi borasidagi amaliy ishlar natijasi respublikamiz statistik ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlil etamiz (1-jadval).

Respublikamizda 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mikrofirmalar soni 62,8 etgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan va mikrofirmalar sonining sohasida (156,5 mingta tarmoqlarida (90,3 mingta va baliqchilik xo‘jaligida (45,9 mingta), qurilishda (43,4 mingta), yashash va ovqatlanishda (32,9 mingta), tashish va saqlashda (18,0 mingta)ni tashkil etgan⁴¹.

So‘nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining keskin kamayishi, hisobot topshirishning qisqartirilishi va soddalashtirilishi, soliqqa tortishda imtiyozlar kiritilishi, kreditlashda keng qulayliklar yaratilganligi respublika iqtisodiy muhitida kichik biznes subektlari salmog‘ini mustahkamlagan. Xususan, respublika (2014–2022-yillar)da kichik biznes rivojlanishining asosiy tarmoq (sanoat, qurilish, bandlik, eksport, import xizmat)lari bo‘yicha nisbiy barqaror dinamika kuzatilganligi holda, shahar va tumanlar miqyosidagi dinamik beqarorlik alohida tadqiqot yondashuvini taqozo etadi.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Toshkent 2022.

**O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
ulushi⁴², foiz**

Ko‘rsatkichlar	Йиллар								
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaiM	61,9	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	50,5
Sanoat	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	23,2
Qurilish	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	74,9
Bandlik	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	76,8
Eksport	27,0	27,0	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	17,6
Import	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	44,7

Chunki, asosiy tarmoqlardagi kichik biznes rivojlanishining tahlili tumanlararo tafovutning jiddiy darajada saqlanayotganligidan dalolat bermoqda. Fikrimizcha, mintaqa infratuzilmasida kichik biznes subektlari faoliyatining yaxshi tashkil etilishi ish bilan bandlik muammosining yumshatilishini, aholi real daromadlari ortishini, soliq tushumlari ko‘payishini, mahalliy byudjet daromadlari o‘rishini, iqtisodiyotda sog‘lom raqobat muhiti yaratilishini hamda turli sektorlar orasidagi o‘zaro aloqalar mustahkamlanishini ta’minlaydi.

Mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim meyoriy-huquqiy xujjatlar va infratuzilma yaratilgan bo‘lib, ular bu sohaning zamon talablari darajasida rivojlanishi uchun ko‘plab imkoniyatlar va imtiyozlar tizimini yaratmoqda.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Toshkent 2022.

1.5-жадвал

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi⁴³, (foiz)

Ko‘rsatkichlar	Йиллар								
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat (mlrd.so'm)	30907,0	39643,5	50654,5	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	58201,3
Qurilish (mlrd. so'm)	13944,9	16954,0	19671,0	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	45203,8
Bandlik (ming kishi)	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	10299,2
Eksport (mln.AQSH.dol)	3657,8	3377,7	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	1748,6
Import (mln.AQSH.dol)	6352,6	5523,1	5676,8	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	6505,0
Savdo (mlrd.so'm)	50197,8	61972,3	78935,6	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	103729,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	82957,2	101197,5	118011,4	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	128068,4
Xizmatlar (mlrd.so'm)	40187,9	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	79313,8
Yuk tashish (mln. tonna)	416,1	472,8	538,6	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9	272,4
Yuk aylanmasi (mln. tonna-km)	8632,9	9225,1	10072,4	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	6693,7
Yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)	4224,5	4486,3	4866,5	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	2621,3
Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	93024,7	99872,8	107789,7	111435,0	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5	58128,2

Tadbirkorlikni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilgan mazkur choralar uning rivojlanish jarayonida, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining ortishida va iqtisodiyotning mazkur sektoridagi bandlik darajasida o‘z aksini topdi.

Yirik korxonalar odatda barcha yangi, ilg‘or ishlab chiqarish natijalarining asoschilari bo‘lib kelgan, chunki ular yirik biznesdagi yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etishni moliyalashtirish va yangi mahsulotni ommaviy tarzda ishlab chiqarishni tashkil

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Toshkent 2022.

etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yuzasidan keng ko‘lamdagi iqtisodiy imkoniyatlarga ega.

Biroq ushbu holat iqtisodiy va siyosiy jihatdan asoslangan ma’lum bir sharoitlarda zarur bo‘lgan, hozirgi vaqtda bu holat tubdan o‘zgargan. Moliyaviy resurslarning doimiy yetishmovchiligi xos bo‘lgan va yetarli e’tibor qozona olmagan kichik biznes korxonalari yirik ishlab chiqarish bilan raqobatlasha oladimi – degan savol tug‘iladi. Negaki, yirik ishlab chiqarishning imkoniyatlari o‘tgan asrdayoq tan olingan bo‘lib, ushbu imkoniyatlar tajribada doimo tasdiqlanib kelgan. Ushbu fikrlarga ko‘ra kichik biznes to‘liq inqirozga mahkum etilgandek tuyuladi hamda kichik biznesni yirik korxonalar uchun noqulay va istiqbolsiz bo‘lgan sohalardagina rivojlantirish mumkinligi xulosasi kelib chiqadi. Biroq samaradorlik sifat belgilarini iqtisodiyot natijalarini baholashning miqdoriy ifodasiga nisbatan xususiyatlovchi ko‘rsatkichlar rolining oshishi bilan kichik biznes korxonalarining bozordagi o‘rni va ahamiyati keskin o‘zgardi. Bizning fikrimizcha, oxirgi yillarda Respublikamizda yirik korxonalar bilan raqobatlasha olish uchun kichik biznes korxonalari ixtiyorida samaradorlikning sifat ko‘rsatkichlari kabi muhim strategik vosita paydo bo‘ldi. Aynan kichik biznes korxonalari iste’mol talabi o‘zgarishiga tez fursatda moslasha oladi hamda vujudga kelayotgan yangi talablarni yirik korxonalarga nisbatan barvaqt qondirishga ulguradi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash natijasida ularning eksportbop, raqobatlasha oladigan sifatli tovar va xizmatlarini ishlab chiqarishini ta’minlaydigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta’minlashga harakat qilishimiz lozim.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirilishi mamlakat ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyotining hal kiluvchi strategik omillaridan biri hisoblanadi. Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan bir qator qarorlar natijasida boshlangan kichik biznes korxonalar tashkil etish va uni rag‘batalantirish jarayoni keyingi yillarda iqtisodiyotimizda muhim o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash deganda, bir tomondan, davlat tuzilmalari tomonidan kichik tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish tushunilsa, boshqa tomondan, unga moddiy va moliyaviy resurslar kiritish ko'zda tutiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash oqilona dotasiyalar, soliq solish, kreditlash, sug'urtalash va investisiyalashdagi imtiyozli tartiblar va xokazolar shaklida namoyon bo'lishi kerak. Bu holda, u boqimandalikni rag'batlantirish bo'lmaydi va kichik korxonalar tomonidan doimiy holat yoki raqobatbardoshlik va rentabellikni oshirishning asosiy manbai sifatida qaralmaydi. Zamonaviy sharoitlarda davlat ko'magining asosiy tamoyili biznesni ma'muriy-direktiv boshqarishni asta-sekin qisqartirish va bozor xo'jaligini barqaror yuritish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratish bo'lmog'i lozim. Davlat ko'magi tarmoqli, geografik, milliy, tarixiy xususiyatlar va an'analar, shuningdek, xorijiy tajribani hisobga olgan holda tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar, omillar yaratish sifatida namoyon bo'lishi kerak. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifalari kichik korxonalarga teng huquqlarni ta'minlash, kichik va yirikroq korxonalar o'rtasidagi xo'jalik imkoniyatlari bo'yicha farqni imkon qadar kamaytirish, O'zbekiston xo'jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta'minlashdan iborat. Bu, birinchi galda raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash va mustaqillik hamda ishbilarmonlikni namoyon etishning shakl va usullarini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo'lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi xo'jalik yuritish tizimini yaratishning bozor mexanizmlariga asoslanib respublikaning joriy va istiqbolli

rivojlanish bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish vositasi hamdir. Shuning uchun mamlakatning umumiy va bosqichli ijtimoiy-iktisodiy rivojlanish maqsadlari tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadlari bilan hamohangdir. Iqtisodiy islohotlarning haqiqiy maqsadi - iqtisodiy o'sishga erishish, aholining yuqori turmush darajasini ta'minlovchi samarali iqtisodiyotni yaratish, O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida real ishtirok etishini ta'minlashdir.

Davlatning iqtisodiyotga, shu jumladan kichik biznes taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi davlat tomonidan shu sohaga taalluqli qonunlar yaratilishi bilan amalga oshiriladi. "O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida», «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish», «Korxonalar to'g'risi»da, «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish» to'g'risidagi qonunlar shu yo'lda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasidir. Jumladan, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunda bu faoliyat bilan, ayrim kategoriyadagi shaxslardan tashqari barcha, jismoniy va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin, deyilgan. Davlat idoralari va boshqaruv muassasalarida ishlovchilar, shuningdek, prokuratura va sud mahkamalari xodimlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi man etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "Xususiy mulknı himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarnı tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi PF-5780-son Farmonining qabul qilinishi ayni mudduoadir.

Bu o'z navbatida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini oshirishga, inflyasiya jarayonlarini sekinlashtirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiy va ijtimoiy

rivojlanish, ma'naviy yangilanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu jumladan Aholining turli qatlamlarini, shu jumladan yoshlar, kam ta'minlangan va himoyaga muhtoj fuqarolar hamda kichik korxonalarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Birgina «Har bir oila — tadbirkor» dasturini amalga oshirish uchun 7,2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi⁴⁴.

Hozirgi kunda mazkur tamoyillarni amalga oshirish natijasida, O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti munosabatlari keng joriy etilib, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va sezilarli iqtisodiy o'sishga erishilmoqda. Natijada respublikada tegishli huquqiy asos yaratilib, bozor infratuzilmalarini shakllantirishga, iqtisodiyotni yangilanishiga va bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllariga asoslangan korxonalarning vujudga kelishiga olib keldi. Shu bilan birga jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch - mulkdorlar, tadbirkorlar sinfi shakllanmoqda, milliy qadriyatlar tiklanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlantirishning zarur meyoriy-qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, ularni samarali amalga oshirish mexanizmi shakllana boshladi va uni davlat tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlash tizimi vujudga keltirildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Erkin tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va respublika hukumati tomonidan boshqa ko'plab meyoriy xujjatlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bugungi kunga kelib bunday chora — tadbirlarning barchasi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

2000 yildan boshlab mamlakatimizda kichik biznes rivojlanishining o'ziga xos yangi davri boshlandi. Bunga asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni xizmat qilgan bo'lsa, 2000 yilning 23 fevralida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi PF-5780-son Farmoni

Mahkamasining «Kichik va oʻrta biznes korxonalari hisobotini qisqartirish va tartibga solish chora- tadbirlari toʻgʻrisida»gi Qarori kichik biznes subektlarining rivojlanishiga halaqit berib kelgan asosiy «byurokratik» toʻsiqning bartaraf etilishi va bu bilan ular faoliyatining rivojlanish imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Shuningdek, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida kichik biznes subektlarini rivojlantirishga aniq maqsadli yoʻnaltirilgan tarzda yondashishga alohida eʼtibor berila boshladi. Bunda mamlakatimiz ichki bozorini sifatli tovar va xizmatlar bilan taʼminlash borasida ustuvor ahamiyatga ega boʻlgan tarmoqlarda kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar va imtiyozlar tizimi amal kila boshladi. Kichik biznes subektlari faoliyatini moliyalashtirishning yangi mexanizmlaridan foydalanish yoʻlga qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasida taʼkidlaganidek, “Bunday vaziyatda, qanchalik ogʻir boʻlmasin, iqtisodiy islohotlarni qatʼiy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni toʻliq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qoʻllab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash boʻyicha islohotlarni jadallashtiramiz.

Birinchi navbatda, hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish boʻyicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi”⁴⁵ birinchi galda, tadbirkorlikning rivojlanishiga taalluqli boʻlib, u mulkchilik va aholining ish bilan bandligi sohasidagi oʻzgarishlar bilan keng maʼnoda bogʻliqdir.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport qilish, mavjud zahiralaridan tejamkorlik bilan foydalanish asosida sifatli va arzon xalq isteʼmoli tovarlari ishlab chiqarib, xalq turmush farovonligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

⁴⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr

II BOB. IQTISODIYOTNING TURLI BOSQICHLARIDA TADBIRKORLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISHLAR

2.1. Mintaqada xususiy tadbirkorlik rivojlanishi va undagi o‘zgarishlar

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida bu soha sezilarli darajada taraqqiy etmoqda. Jumladan, bunga respublikamizda qabul qilingan alohida qonunlar tizimi, me‘yoriy xujjatlar, ayniqsa, Davlat dasturi asosida yaratilgan xuquqiy-meyoriy bazasi zamin bo‘ldi. Shu sababli, viloyatda bu toifadagi subektlar soni yildan-yilga o‘sib bormoqda.

Statistik ma‘lumotlar ko‘rsatishicha, oxirgi vaqtda Qashqadaryo viloyatida kichik biznes korxonalarining eksportga jo‘natgan mahsulotlari nisbatan kamayib ketgan. Ba‘zi ma‘muriy tumanlar umumiy eksport xajmida katta hissaga ega. Shu bilan birga viloyatning ayrim tumanlarda kichik biznes korxonalarining eksport hisssasi pastga tushib qolgan.

O‘zbekistonda kichik biznesning yanada rivojlanishi uchun ularni tashkil etish va faoliyati davomida talab etiladigan xujjatlarni rasmiylashtirishda qulay usullardan foydalanish; xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish va imtiyozli kreditlar berilishini ko‘paytirish; davlat tomonidan xorijiy kichik texnologiyalarni olib kelishda lizing xizmatlarini yo‘lga qo‘yish ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda davlat dotatsiyalari муҳимлигини» e‘tiborga olish; tadbirkor va xaridorlarning ijtimoiy himoya kafolatini ta‘minlash; ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ehtiyoj va talab kon‘yunkturasini o‘rganish maqsadida respublika axborot tizimini tashkil etish zarur.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko‘rsatishicha, mamlakatimiz hududlari va mintaqalarida xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qator dasturiy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021 yilda Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik subektlari soni 9463 tani tashkil qildi, 139,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 51,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 2021 yilda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi Qashqadaryo viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga YahMdagi ulushi 69,0 foizni tashkil

qildi (2020 yilda 71,5 foiz). YAHM tarkibida ko'payishi yirik korxonalar ulushi tushishi bilan izohlanadi.⁴⁶

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, viloyatda hali tadbirkorlik sohasida foydalanilmayotgan imkoniyatlar talaygina. Qishloqqa chet el investitsiyasini jalb etish va ichki imkoniyatlardan foydalangan holda xorijga mahsulotni eksport qilish shunday imkoniyatlardan hisoblanadi. Bu, albatta, ko'p jihatdan qo'shma korxonalar faoliyatini faollashtirishni talab etadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, agrar sohada kichik tadbirkorlik salohiyatidan to'raligicha foydalanilmayotir. Shu bois, ayrim qishloq hududlarida tashkil etilgan qo'shma korxonalar eksport salohiyatlarining atigi beshdan bir qismidangina foydalanilmoqda.

Shuning uchun kichik tadbirkorlikning ishlab chiqarishdagi mohiyati, iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati mezonlariga e'tibor qaratilmog'i lozim. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy-tarkibiy jihatdan u tarmoq tuzilishini belgilab, ichki bozorni talab va taklif asosida tovarlar va xizmatlar bilan to'ldiradi;

- ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qishloq aholisining asosiy qismini ish joylari hamda barqaror daromad manbai bilan ta'minlaydi, aholi turmush darajasini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi;

- ishlab chiqarish va ish joylarini ko'p mablag' talab qilmasdan qayta tashkil etish va jihozlashga imkon beradi;

- ijtimoiy-psixologik jihatdan oilada mehnat ko'nikma va an'analari avloddan-avlodga o'tishini, mahsulot yetishtirish madaniyati va mahorati hamda sir-asrorlarini egallash jarayoni davom etishini ta'minlaydi.

Statistik tahlillarimizning ko'rsatishicha, aksariyat qishloq tadbirkorlari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishdan tashqari turli noqishloq xo'jaligi faoliyati bilan ham shug'ullanib kelmoqdalar. Bu, ayniqsa, yirik shahar hamda sanoat markazlari atrofida joylashgan kichik tadbirkorlik subektlari faoliyatining asosiga aylanib bormoqda.

Viloyatda tadbirkorlik harakati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, aholi va mehnat resurslari nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib borishiga qaramasdan, iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida kichik biznesda mehnat qilayotganlar salmog'i yil sayin oshmoqda.

⁴⁶ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi Qarshi-2022

2.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari⁴⁷

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar		2021 yil 2020 yilga nisbatan o'zg (+; -)
			2020	2021	
1	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	<i>birlik</i>	25297	31152	5855
2	Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	<i>birlik</i>	5742	9463	3721
3	YAHM	%	71,5	69,0	-2,5
4	Sanoat	%	34,6	26,3	-8,3
5	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,9	99,1	0,2
6	Investitsiya	%	17,9	26,0	8,1
7	Qurilish	%	88,4	78,6	-9,8
8	Savdo	%	88,3	90,1	1,8
9	Xizmatlar	%	70,1	70,2	0,1
10	Yuk tashish	%	87,1	87,7	0,6
11	Yuk aylanmasi	%	88,0	87,2	-0,8
12	Yo'lovchi tashish	%	96,0	95,4	-0,6
13	Yo'lovchi aylanmasi	%	96,5	97,4	0,9
14	Eksport	%	56,7	51,6	-5,1
15	Import	%	52,4	68,7	16,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2020 yilda 25297 birlikni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021 yilda 31152 birlikni tashkil etgan. 2021 yil 2020 yilga nisbatan 5855 taga oshgan. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2020 yilda 5742 birlikni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021 yilda 9463 birlikni tashkil etgan. 2021 yil 2020 yilga nisbatan 3721 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.⁴⁸

⁴⁷ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi Qarshi-2022

⁴⁸ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi asosida muallif ishlanmasi Qarshi-2022

Viloyatda tadbirkorlik harakati rivojining o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, mavjud tadbirkorlik subektlaridan 87,0 foizga yaqinini mikrofirmalar tashkil etmoqda. Har yili tashkil etilayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining 65-70 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelmoqda. Bu, hukumatimiz tomonidan respublikamizda va ayniqsa, qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yetarli sharoit va katta imkoniyatlar yaratilayotganligidan dalolat, shuningdek, tadbirkorlik harakati rivojlanishining bir xususiyati hisoblanadi.

Viloyatda kichik biznesning rivojlanishiga alohida e'tibor berilayotganligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ushbu sohaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Viloyatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tajribasi kichik biznesni rivojlantirishda ham o'z ahamiyatiga ega bo'lmoqda. Bunda viloyat iqtisodiyoti uchun yangi bo'lgan bozor munosabatlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ko'rsatadigan ta'sir darajasini to'laroq hisobga olish va shu asosda maqsadli yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish imkoni yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoniga asosan "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish"⁴⁹ asosiy maqsad qilib belgilanib olingan.

Ushbu soha bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai hisoblanadi.

Aytish kerakki, aynan ana shu odamlar o'z biznesini rivojlantirish va kuchaytirishdan, shu asnoda iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashdan eng ko'p manfaatdor bo'lgan insonlardir. Aynan ana shu shaxslar jamiyatda barqarorlik va yer yuzida tinchlikni mustahkamlamasdan turib, yuqorida zikr etilgan ezgu maqsadlarga erishib bo'lmashligini chuqur tushunadigan odamlardir.

Aholi turmush darajasini yanada oshirishni yuksak maqsad qilib qo'ymoqdamiz. Ushbu muhim vazifani xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarini,

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni

aloqa va transport, moliya-bank xizmatlari, kommunal xizmat hamda asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini talab etadigan boshqa infratuzilma sohalarini jadal rivojlantirish orqali hal etish mumkin.

2.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi⁵⁰

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2021 yil 2017 yilga nisbatan o'zg. (+; -)
		2017	2018	2019	2020	2021	
1	YaiM	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	-10,4
2	Sanoat	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-14,2
3	Qurilish	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	7,6
4	Bandlik	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	-3,6
5	Eksport	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	0,3
6	Import	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	-4,9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlillarga ko'ra, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2017 йилда 65, % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 54,9%ni tashkil etgan 2021 yil 2017 yilga nisbatan o'zgarishi -10,4% kamaygan. Mutonosib sharoitda sanoat -14,2% ga, import -4,9% ga kamaygan.

Kichik korxonalar rivojlanishini baholashda jumladan korxonalarning soni, ularda band bo'lgan xodimlarning soni yoki ular orqali ish o'rinlarining yaratilishi, mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan tushum orqali ularning bozorni to'ldirishga qo'shayotgan ulushlarini tavsiflovchi qator ko'rsatkichlardan umumiy tarzda foydalaniladi.

Tahlil qilinayotgan davrda kichik biznes korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra qurilish va bandlik ulushi katta salmoqni egallaydi. Bu esa kelgusida kichik tadbirkorlik faoliyatida boshqa sohalarni ham har tomonlama rivojlantirishga ularga ajratilayotgan investitsiyalar miqdorini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlamoqda.

⁵⁰ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

2.2. Iqtisodiy islohotlar sharoitida xususiy tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi, uning shakllanish jarayonlari

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga hamohang ravishda Qashqadaryo viloyatida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning YahMdagi ulushini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, Respublika Prezidentining mazkur sohani erkinlashtirish va isloh qilishga bag'ishlangan Farmonlari, qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizda kichik biznes subektlarini qo'llab-quvvatlashga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bir so'z bilan aytganda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, "xususiy mulk" boshqa mulk shakllari kabi "daxlsiz" deb e'lon qilindi va davlat tomonidan muhofaza etilishi kafolatlandi⁵¹.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifiatsiyalash sharoitida tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish, ular faoliyatiga aralashuvni keskin cheklash, xisobot topshirishni qiskartirish va soddalashtirish, soliq solish tartibiga bir qator o'zgartirishlar kiritilganligi, kichik biznes subektlariga kreditlar ajratish, ularga mikroiqtisodiy muhit borasida keng qulayliklar yaratitib berilganligi viloyat tadbirkorlari uchun muxim voqea bo'lib, kichik biznes subektlarining viloyat ichki hududiy mahsulotidagi ulushining oshishiga sabab bo'ldi. Jami korxonalarga nisbatan nodavlat mulkchilik shaklida ro'yxatdan o'tgan korxonalarning salmog'i 93,6 foizni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitidan kelib chiqqan holda, asosiy e'tibor kichik va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, tadbirkorlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash, shahar va tumanlarda fuqarolarning xususiy mulk va qo'shimcha daromadga ega bo'lishini rag'batlantirish hamda aholini tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning turmush sharoitini yaxshilash, haqiqiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirishni davom ettirishga, xususiy sektorni viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli va ahamiyatini tubdan oshirishga, iqtisodiyot sohalarida kichik biznesning

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda

salmog'ini oshirish, aholi xonadonlarida tadbirkorlikdan olinadigan daromadni ko'paytirish, har bir oilada tadbirkor bo'lishiga erishishga qaratildi.

Qulay ish muhitini yaratishga qaratilgan chora – tadbirlar kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi hissasining oshishiga, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishiga va iqtisodiyotning boshqa muhim yo'nalishlarida ham sifat o'zgarishlarining amalga oshirilishiga sabab bo'ldi.

Shunga qaramasdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha viloyatda o'z yechimini kutayotgan talaygina muammolar mavjudki, ularni hal etish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ancha ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Shu bilan birga talay muammolar ham mavjudki, ularni hal etish bunday natijalarning oshishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik potentsiali to'liq darajada ochilmagan va safarbar qilinmagan; uning tuzilmasi va texnik jihatdan jihozlanganlik darajasi o'sib borayotgan talablarga javob bermaydi;

- davlat nazorat organlarining korxonalar xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashuvi davom etmoqda;

- xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi va sifati aholining ortib borayotgan talabiga muvofiq emas. Shuning uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasida yuqori raqobat muhitini shakllantirish, xizmatlarning yangi turlarini, ayniqsa qishloq joylarida, rivojlantirish;

- viloyatning eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish;

- xususiy biznes uchun mumkin qadar qulay sharoitlar yaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, ushbu asosda aholining ish bilan bandligi va farovonligini oshirish;

- viloyat tuman va shaharlaridagi sarmoyali tadbirkorlarni izlab topish, ularga mahalliy xom ashyo salohiyatidan foydalangan holda uni qayta ishlash uchun minitexnologiyalarni olib kelishga ko'maklashish;

- korxonalarda eskirgan asbob-uskunalarni yangisiga almashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- viloyatdagi agrofimalarning faoliyatini jonlantirish, ularni meva-

saibavotchilik fermerlari uchun mahsulotlarni sotish, yangi agrotexnikalarni joriy etish, unumdor urug‘lar bilan ta‘minlash kabi muammolarni yechadigan uyushmaga aylantirish choralari ko‘rish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan shartnomalarini sug‘urtalashni keskin oshirish;

- viloyatning investitsion salohiyati va chet el investitsiyasini kiritish manbalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tayyorlab, chet el sarmoyadorlariga yetkazish choralari ko‘rish, bunda elchixonalar salohiyatidan, Internet tizimidan, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish tizimini joriy qilish;


- tadbirkor uchun aynan kerak bo‘ladigan biznes vakillarini doimiy xabardor qilib turish maqsadida viloyatdagi iqtisodiy salohiyat, mavjud resurslardan kelib chiqib, dunyo bozorlaridagi uskunalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, ularning katalogini tuzish va doimiy yangilab turish, to‘plangan ma‘lumotlarni tadbirkorlarga turli xil axborot markazlari orqali yetkazish;

- tadbirkorlar tomonidan tanlangan zamonaviy uskunalarni sotib olish uchun moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash, jamg‘arma, lizing, faktoring va kredit mexanizmlaridan foydalanib, moliyaviy muammolarni hal qilish.

2.3. Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishining iqtisodiy baholanishi uning tahlili

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda iqtisodiy salohiyat va undan samarali foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy iqtisodiyotning salohiyatini to‘g‘ri aniqlash va uning to‘lqonli ishga tushirilishini ta‘minlash nafaqat rivojlanishning muhim sharti, balki xalqaro miqyosda raqobatdoshligini ta‘minlashning zamini hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha olim-mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bo‘yicha muayyan ilmiy natijalar olingan. Umumiy holda «salohiyat» (potensial – lotinchada potentia – kuch, imkoniyat) – biron-bir narsani harakatga keltirish, muayyan holatda ushlab turish yoki saqlash uchun zarur bo‘lgan vositalar, sharoitlar majmui sifatida qaraladi. Shunga ko‘ra «iqtisodiy salohiyat – bu mamlakat iqtisodiyoti, uning tarmoqlari, korxonalar, xo‘jaliklarning ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, mahsulot, tovar, xizmatlarni ishlab chiqarish,

aholi talablari, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, ishlab chiqarish va iste'molning rivojlanishini ta'minlash bo'yicha yig'ma qobiliyatini bildiradi»⁵².



2.1-пачм XUSUSIY TADBIRKORLIKNING IQTISODIY SALOHIYATINI CHEGARASI⁵³

Bundan ko'rinadiki, iqtisodiy salohiyatning iqtisodiy mazmunini ochib berishda ushbu masala «iqtisodiy salohiyat» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan iqtisodiy resurs, imkoniyat, zaxira, sharoit, vosita kabi tushunchalarning nisbatini aniqlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ishda iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq asosiy tushunchalar, jumladan, tadbirkorlik salohiyati, ishlab chiqarish salohiyatining uzviy aloqadorligi ochib berilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan iqtisodiy salohiyatning tarkibiy unsurlari muayyan tizimga solinib, ularning kichik biznes iqtisodiy salohiyati tarkibiy unsurlari bilan o'zaro nisbatini ifodalovchi ilmiy-uslubiy qoidalar shakllantirilgan. ya'ni, kichik biznesning iqtisodiy salohiyati umumiy (mamlakat

⁵² Экономический потенциал. - https://dic.academic.ru/dic.nsf/econ_dict/20404


⁵³ Yusupov B.A. O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati – T. 2020.;

iqtisodiyoti darajasidagi) iqtisodiy salohiyatdan farq qilib, u kichik biznes subektlari tomonidan foydalanilayotgan va qo'shimcha say-harakat evaziga foydalanishga kiritilishi mumkin bo'lgan resurslar, vositalar, sharoitlar, kuch va imkoniyatlar majmuidan iborat. Shuningdek, iqtisodiyotning alohida sektori sifatida (miqdoriy va sifat mezonlari bo'yicha chegarasiga asosan) kichik biznesning iqtisodiy salohiyati chegarasini belgilab olish mumkin (2.1-rasm).

Tahlilning ko'rsatishicha, umumiy yoki milliy iqtisodiyot darajasidagi iqtisodiy salohiyat (UIS) uning tarkibiy unsurlari bo'yicha barcha resurslar, vositalar, sharoitlar va imkoniyatlarni qamrab oladi. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyat chegarasi esa, uning miqdor va sifat mezonlari orqali belgilangan sohasinigina qamrab oladi.

Shunga ko'ra, tabiiyki, xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyatdan kichik bo'ladi. Biroq, uning tarkibiy unsurlari bo'yicha ushbu qoida ishlamasligi ham mumkin, ya'ni, nazariy jihatdan muayyan tarkibiy unsur bo'yicha xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyatga teng bo'lishi ham mumkin.

Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyati turli tarkibiy unsurlardan tarkib topar ekan, ulardan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham aynan shu unsurlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, mehnat resurslaridan foydalanish darajasiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatsa, moddiy resurslardan foydalanish darajasiga boshqa bir qator omillar guruhi ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, kichik biznes iqtisodiy salohiyatining tarkibiy unsuri hamda uning funksional tavsifidan kelib chiqqan holda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muayyan tizimga solindi.




2.2-pacm. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash tartibi⁵⁴

Ishda xususiy tadbirkorlik iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish uchun unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tartibga solish choralarini qo'llash zarurligi ilmiy jihatdan asoslanib, milliy iqtisodiyotda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini baholashning uslubiy masalalari ko'rib chiqilgan. Jumladan, mazkur jarayonni mamlakatning har bir ma'muriy-hududiy darajasi (masalan, mahalla, tuman, viloyat, mamlakat darajalari) hamda alohida

⁵⁴ Yusupov B.A. O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati – T. 2020.;

unsurlari bo'yicha amalga oshirish mumkinligi ta'kidlanib, uni hisob-kitob qilish tartibi taklif etilgan.

Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash mazkur yo'nalishdagi tizimli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, hududdagi xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni baholash va uni yanada faollash-tirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash tartibi tavsiya etilgan (2.2-pacm).



2.3-rasm. Mehnat resurslarini xususiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo'nalishlari⁵⁵

Hududlardagi iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini aniqlab olish hamda ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish lozim. Shunga ko'ra, xususiy tadbirkorlik korxonalari iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini ifodalashga xizmat qiluvchi 12 ta ko'rsatkich belgilab olindi va ularni hisoblash usullari tavsiya etildi.

⁵⁵ Yusupov B.A. O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati – T. 2020.

Fikrimizcha, xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish baholash va amalga oshirish jaryonida mehnat resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishni quyidagi uslubiy-amaliy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirishi maqsadga muvofiq (2.3-rasm).

Mehnat resurslarini xususiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo‘nalishlari tahliliga ko‘ra, *birinchi yo‘nalish* barcha toifadagi mehnat resurslarini bevosita tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirishdan iborat bo‘lib, u davlatning faol tadbirkorlik siyosatiga mos keladi. Bunda asosiy maqsad mamlakatda xususiy tadbirkorlik subektlarni ko‘paytirish orqali, tadbirkorlik faoliyatini keng yoyishga, ya’ni «Har bir oila – tadbirkor» g‘oyasiga qaratilganidir.

Ikkinchi yo‘nalish amaldagi tadbirkorlarni muayyan, maqsadga yo‘naltirilgan mehnat resurslari toifasini yollashga rag‘batlantirishdan iborat bo‘lib, u davlatning tadbirkorlikdan bandlik siyosati dastagi sifatida foydalanishini ko‘zda tutadi. Ya’ni, iqtisodiyotdagi ishsizlar uchun mazmuni va tarkibi jihatidan mos tushuvchi ish o‘rinlarini yaratish hisobiga bandlik darajasini oshirish mazkur yo‘nalishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish mehnat resurslarining muayyan toifalarini yollashga ixtisoslashgan tadbirkorlik shakllarini tashkil etishdan iborat bo‘lib, bunda tadbirkorlikdan davlatning ijtimoiy siyosati dastagi sifatida foydalanish ko‘zda tutiladi. Ya’ni, aholining ommaviy tarzdagi ijtimoiy ish joylarida mehnat qilish uchun imkoniyati bo‘lmagan toifalari – bola parvarishidagi ayollar, uy bekalari, talabalar va boshqa vaqtinchalik mehnat qilish imkoniga ega bo‘lgan fuqarolarning bandligi yoki ikkilamchi bandligini ta’minlash vazifasi ilgari suriladi.

III BOB. XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

3.1. Xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llari

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi sanoat bilan integratsiyalash va savdo bilan qo‘shilish orqali taraqqiy topmoqda. Shu bois jahon qishloq xo‘jaligi bu sohaga aloqador bo‘lmagan sohalar bilan qo‘shib olib borish keng tarqalmoqda. Masalan, Yaponiyada shunday dehqon xo‘jaliklari 80foizga yetib qoldi. Amerika fermerlarining qishloq xo‘jaligiga aloqasi bo‘lmagan sohalardan olayotgan daromadlari o‘rtacha 63 foiz, Xitoyda 65 foiz, Janubiy Koreyada 40 foizni tashkil etadi.

Zamonaviy texnika vositalari va biotexnologiyalarning rivojlanishi asosida qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashib bormoqda. Yaponiya hukumati o‘tgan asrning 60-yillar oxiriga kelib, mamlakat hududini o‘zlashtirishnin uchinchi rejasi haqida qaror qilgan edi. Bu qarorda qishloq xo‘jaligini sanoat bila integratsiyalash zaruriyati ko‘zda tutilgan. Hamma joyda qishloqni industrlashtirsh orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish rejalashtirilgan. 1978 yil «Qishloq joylarida sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida”gi qonun e’lon qilindi. Unda qishloq sanoatini tuzish tadbirlari tizimi ko‘zda tutilgan edi. Shu qonun asosida "Har bir qishloqda bitta tovar" harakati boshlandi. Uning mazmuni shuki, har qaysi qishloqda raqobatbardosh sanoat mahsuloti ishlab chiqaradigan bitta korxona bo‘lishi shart. Qishloq sanoatining rivojlanishi munosabati bilan «Bitta qishloqda yuzta tovar» shiorini ilgari surgan murakkab vazifa kun tartibiga qo‘yildi.

AQSH iqtisodidagi kichik sektorning ulushi nafaqat yalpi ichki mahsulotda, balki unda ishlovchilar sonida ham katta. Kichik biznesni rivojlantirishning 900 dan ortiq markazlari kichik va o‘rta firmalarga konsultatsiya beradilar, boshlovchi tadbirkorlarga biznes-rejalar tayyorlashda, davlat tashkilotlaridan moliyaviy yordam olishda ko‘maklashadilar. 1,5 mingdan ko‘proq kompaniyalarni birlashtirgan okrug kengashlari seminarlar o‘tkazadilar, tadbirkorlarni o‘qitadilar, kichik firmalar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha

ma'lumotnoma-qo'llanmalar tuzadilar.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun 330ga yaqin maxsus uzoq, o'rta va qisqa muddatli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda mazkur dasturning yarmidan ko'prog'i iqtisodiyotning turli sohalarida kichik biznesni shakllantirish maqsadida turlicha kreditlash va ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan soliq, solish shaklida amalga oshiriladi.

Yaponiyada ham kichik biznes sezilarli rol o'ynaydi. Bunga kichik va o'rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi yaratilganligi imkon berdi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Yaponiya qonunchiligi kichik va o'rta korxonalarni ular rivojining barcha bosqichlarida imtiyozli qarz va kreditlar berish, turli soliq, imtiyozlaridan foydalanish, texnika va maslahat yordami ko'rsatish, axborot xizmatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish asosida rag'batlantirishni nazarda tutadi. Yaponiya sanoatining bu sektorida kichik biznes shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil soliq, imtiyozlari va puxta moliya siyosati bilan bir qatorda kichik korxonalarga kredit beruvchi xususiy banklarga beriladigan kafolatlar tizimidir.

Janubiy Koreya, Singapur va Gonkongda kichik va o'rta korxonalarga zarur kapitalning 50 foizgachasi davlat tomonidan berilgan, shuningdek davlat uzoq, muddatli kreditlar bo'yicha foizlar summasining yarmini to'lashni ham o'z zimmasiga olgan. Quyidagilar ham kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi muhim tadbirlar turiga kiradi: xomashyo va asbob uskunalarni qat'iy baholarda yetkazib berish kafolatlangan davlat xaridi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida kichik tadbirkorlikni turli moliya-kredit muassasalari: Peruda Rivojlanish moliya korporatsiyasi, Boliviya Los va Andes Omonat kassasi va Birdamlik banki, Urugvayda Milliy rivojlanish korporatsiyasi, Kolumbiyada milliy Kafolat fondi va boshqalar qo'llab-quvvatlaydilar.

Kichik tadbirkorlik sektori turli mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muxim vazifani bajarmoqda. Ushbu sektor bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlaydi, ishlab chiqarishda chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi. Zero, bularsiz yuksak samaradorlikni

tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Masalan, AQShda turli yo'nalishdagi 19 mln.dan ortiq mustaqil firmaning 90 foizdan ziyodi mayda korxonalardir. Yaponiyada o'rta va kichik korxonalar tarkibiga kiradigan 10 mln.dan ortiq mustaqil kompaniyalar mavjud bo'lib, ularning 99 foizi kichik biznes sektorida faoliyat ko'rsatar ekan, AQSH va Yaponiyada ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 50 foizdan ortig'i ana shunday korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

AQShda yangi ishchi o'rinlarining 3 dan 2 qismi mayda firmalarda tashkil etilmoqda. Masalan, 1970 yilda 264 mingta, 1980 yilda 532 mingta, 1988 - 1990 yillarda 682 mingta kichik korxona va firmalar tashkil topishi aholini ish bilan ta'minlashda katta imkoniyat yaratdi. Xullas, kichik biznes AQSH taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda Buyuk Britaniyaning ham o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan. 1970 yilda hokimiyatni boshqargan E.Xito kichik biznesga jiddiy ahamiyat bergan va 1971 yil Bolton komissiyasini tuzgan. Komissiyaga kichik biznesning ahvolini o'rganib borishni va uni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritishni topshirgan. Natijada, kichik va o'rta biznes taraqqiyoti uchun eng qulay sharoit yaratilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, mazkur yillarda tashkil toptan kichik va o'rta biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalardan 96 foizining har birida ishchilar soni 20 nafardan oshmagan.

Umuman, rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli kishilarning 70-90 foizi kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanadi.

Germaniya sanoat ishlab chiqarishining eksportdagi eng katta ulushi bilan ajralib turadigan davlatlar sirasiga kiradi. Mazkur mamlakat tovar aylanishi bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi. Uning tajribasidan o'rganib, xayotga tatbiq etsa arziydigan jihatlar juda ko'p. Aniq, puxta, o'z vaqtida, bekamu-ko'st bajarish bilan birga doimo har qanday talabga hozir bo'lish kabi qoidalar shunday jihatlardan sanaladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida endigina o'z faoliyatini boshlagan tadbirkorning bu qoidalarga e'tibor berishi sifat ko'rsatkichlari oshishi hamda ortiqcha xarajatlar kamayishiga olib keladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili, iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiy ravishda talab qiladigan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik subektlari sifatida keng faoliyat yuritmoqda. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini izchil rivojlantirish natijasida aholini yangi ish joylari va daromad manbai bilan ta'minlash, joylarda tashabbuskorlikni rag'batlantirish orqali aholi orasida tadbirkorlik ko'nikmalarini ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari milliy iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, ichki bozorni nisbatan arzon va sifatli zaruriy tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, yangi ishchi o'rinlarini yaratishga, shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yo'naltirish orqali mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda biz turli manbalarni o'rganish asosida rivojlangan va rivojlanish bosqichiga kirayotgan bir necha xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o'rganish va tahlil etish asosida ulardan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog'ini oshirishga tadbiriq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan majmuaviy kompleks tuzilma bo'lib, bunda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish qonuniy asoslab qo'yilgan hamda tadbirkorlar imtiyozli sur'atda kredit resurslari imkoniyatlaridan foydalanadilar. Imtiyozli soliq to'lash imkoniyatlariga ega, ishlab chiqarish, moliya, fan, bozor infratuzilmasidagi jami afzalliklar va yangiliklardan, o'zlariga manfaatli bo'lgan iqtisodiy o'sishga ko'maklashuvchi barcha omillardan foydalanadilar. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, biror bir mamlakatda davlat kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga doir maqsadli va qat'iy iqtisodiy siyosat yuritir ekan, albatta o'z hududida yashovchi aholining iqtisodiyotdagi

tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlarini, mentalitetini va shu kabi boshqa omillarni ham hisobga olishi zarur .

Masalan, Germaniyada davlat qishloq joylarida sexlar ko'rinishidagi kichik-kichik ishlab chiqarish xo'jaliklarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun har tomonlama rag'batlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilib, qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarining ma'lum bir ekin turiga yoki o'simlikka ixtisoslanmaganligi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat, iste'mol mollarining ishlab chiqarilishi keng yo'lga qo'yilishiga katta ahamiyat bermoqda. Yaponiyada esa kichik va yirik kooperatsiya tarmoqlarini shakllantirish, mayda va o'rta biznes imkoniyatlarini rivojlantirib, yirik korxonalar tizimini yaratishga, tashqi bozorlarda yapon maxsulotlarining, yapon texnologiyasining qadru-qimmatini oshirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda ham dastavval kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga alohida ahamiyat berilgan. Qisqa muddatda Yevropa iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biriga aylangan Germaniyada o'tkazilgan qat'iy davlat siyosati natijasida mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes rivojlantirildi va urushdan keyingi yillar mobaynida kichik biznes taraqqiyoti 10 foizdan 65 foizgacha yetdi.

Yaponiya ham iqtisodiyotda kichik biznesni jadal rivojlantirishi natijasida "yapon mo'jizasi"ni yaratib, dunyoda bu boradagi eng yuksak natijalarni qo'lga kiritdi, ya'ni, Yaponiyada aholi jon boshiga 38000 AQSH dollari hisobida daromad kela boshladi, xolbuki, kichik biznesni rivojlantirish borasidagi islohotlar boshlanishidan avval bu ko'rsatkich atigi 600 AQSH dollarini tashkil etardi, xolos. Jahon sanoatida yetakchi o'rinda turadigan Yaponiyaning «Yamaxa» transmilliy kompaniyasi butun dunyo bo'yicha yiliga bir necha o'n milliard AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarmoqda, xolbuki mana shu "naxang,, kompaniya ham o'z faoliyatini 40-yillar oxirida 7 nafar odam ishlaydigan velosiped tamirlashni amalga oshiruvchi kichik kooperativ (ustaxona) shaklida boshlagan edi.

2000 yillargacha o'tgan 20 yil (1980-2000 yy.) davomida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) o'z iqtisodiyotini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish asosida tashkil etishi natijasida mamlakat

iqtisodiy, siyosiy va davlat inqirozidan ko‘p ko‘rsatkichlar bo‘yicha chiqib ketdi va jahon taraqqiyotida o‘zining munosib o‘rnini topdi. Yutuqlar shu darajada qoyil qolarliki, global iqtisodiy tahlil markazlari hisoblangan Butunjahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining tan olib aytishicha, bunday “taraqqiyot tezligi”da Xitoy iqtisodiy rivojlanish absolyut ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2015-2020 yillarga kelib, AQSH va Yaponiyadan o‘zib ketishi mumkin. Keyingi 20 yil davomida XXRning YAIM bir necha barobar o‘shib, 1998 yilda 8 trln. yuan (taxminan 1 trln. AQSH dollari)ga yetdi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad 16 marta – 184 yuandan 2972 yuangacha, aholining pul jamg‘armalari 254 martaga (450 mlrd. AQSH doll.) oshdi. Bu davrda Yaimning o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati 10 foizni, jumladan, sanoatda – 15,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 7 foizni tashkil etdi. Bu esa davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflaydigan ulkan ichki investitsiya jamg‘armasining shakllanishiga asos bo‘ldi.

XXR iqtisodiyoning jadal rivojlanishining asosiy sabablaridan yana biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari va xorijiy investorlar faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va ximoyalanishidir. Buning tasdig‘i sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, 1979 yildan hozirgi vaqtgacha Umumxitoy xalq vakillari yig‘ini (UXVY) va UXVY Doimiy qo‘mitasi tomonidan 328 ta qonunlar ko‘rib chiqilib, ular bo‘yicha sharh va qarorlar qabul qilingan. Davlat kengashi orqali XXR hukumati moliyaviy-iqtisodiy va bozor munosabatlarining turli jihatlarini tartibga soluvchi 700 dan ortiq me‘yoriy xujjatlar chiqardi.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalashning ajoyib va original jihatlaridan yana biri bu “ochiq” iqtisodiy siyosatning olib borilishidir. Bu siyosat o‘z aksini shunda namoyon qiladiki, mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan, 14 ta yirik dengiz portlari va shaharlar ochiq deb e‘lon qilingan. Butun Xaynan provinsiyasi (shu nom bilan ataluvchi orolda joylashgan) maydoni maxsus ochiq iqtisodiy hudud deb e‘lon qilindi. Shanxayda Pudun yangi iqtisodiy rayoni tashkil etildi va x.k.

Ochiqlik siyosati esa, avvalo, mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini

xalqaro amaliyot talablari asosida olib borish imkonini berdi. Natijada tashqi savdoda islohotlar amalga oshirildi, valyuta tushumi xarajatlarini rejalashtirishga chek qo'yildi, muntazam va bosqichma-bosqich ravishda bojlarning umumiy miqdori kamaytirilib borildi. Xorijiy kapital qo'yilmalar uchun Markaziy bank va davlatning huquqiy va iqtisodiy kafolatlarini belgilovchi kompleks tizim yaratildi.

“Ochiqlik siyosati” va qulay investitsion iqlimning yaratilishi Xitoyni iqtisodiyotga chet el kapitalini kiritish bo'yicha AQShdan keyingi, ikkinchi markazga aylantirdi. Islohot yillarida Xitoyda 370 mlrd. AQSH dollaridan ko'proq chet el kapitalidan foydalanilgan. Xorijiy kapital ishtirokida 300 mingdan ziyod investitsion loyihalarni amalga oshirishga erishilgan. Bunda 17,5 mln kishi band bo'lgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida Janubiy Koreya, Isroil, Malayziya va Iordaniya davlatlarida ham foydali tajribalar to'plangan.

So'ngi yillarda Isroil davlati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqib, 1998 yilda kichik biznes rivojlantirish bo'yicha 64 ta markaz tashkil etildi.

Iordaniyada kichik mayda ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotning notartib sektori deb ataladigan sektorni tashkil etadigan xo'jalik subektlaridir. Unga quyidagilar kiritiladi:

- band bo'lgan xodimlar soni 9 kishidan ortmaydigan mayda sanoat korxonalari, shuningdek, texnikani ta'mirlaydigan va xizmat ko'rsatadigan ustaxonalar;

- sex va uylarda amalga oshiriladigan, yollanma va oila mehnatidan foydalaniladigan hunarmandchilik ishlab chiqarishi;

- uy xizmatkorlari, xaydovchilar, yuk ortuvchilar, korovullar, oshpazlar va boshqalarni o'z ichiga olgan shaxsiy xizmatlar sohasi;

- mayda chakana savdo va maishiy xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan mayda an'anaviy xizmat va an'anaviy transport sohasi.

Shu paytgacha bozor tarkibida band bo'lganlar soni bo'yicha notartib sektor kichik korxonalar sohasidan bir yarim baravar ko'p bo'lib, ustunlik

qilib keladi.

Iordaniyada mayda tovar ishlab chiqarishining, zamonaviy mehnat qurollarini chiqarish va ta'mirlash, elektr maishiy va radioelektron texnika, tibbiy uskunalar, avtotransportni ta'mirlash tarmoqlari va xokazolar tobora keng tarqalmokda. Bu tarmoqlar yirik shaxarlarda ko'proq rivojlangan. An'anaviy tarmoqlarning asosiy qismi esa kichik chekka shaxarlarda jamlangan. Ta'mirlash tarmoqlarida konveyer tizimi qo'llanadigan ustaxonalar ustunlik qiladi. Unda muayyan ishchilarning izchillik bilan bajarilgan qo'shma mehnati natijasi so'nggi mahsulot hisoblanadi. Bunday muassasalar ko'pincha kichik xususiy korxonalarga aylanadi.

Mayda ishlab chiqarish qishloq-shahar yo'nalishida ko'chib yurishni sekinlashtiradi. Chunki asosiy korxonalar uchun xom ashyo avval uni tayyorlovchi dehqonlardan qishloqdagi yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kasanachi ustalarga va ulardan keyingina u tugatib qayta ishlaydigan korxonalarga keladi. Raqobat sharoitida bunday ko'p bosqichli aloqalar dehqonga va shahar vakiliga qo'shimcha mablag'lar olib keladi.

Iordaniyada ilmiy-texnika yutuqlarining tarqalishi va transmilliy kompaniyalarning kirib kelishi mayda ishlab chiqarishning zamonaviylashishi, uni ishlab chiqarishning zamonaviy asboblari va vositalari bilan ta'minlanishiga olib keldi. Bu esa yanada zamonaviyroq mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkonini berdi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismi yangi ishlab chiqarish vositalarining qimmatligi tufayli bugungi kungacha ishlab chiqarishning an'anaviy vositalaridan foydalanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarishlarda texnika bilan ta'minlanish va energiyadan foydalanish darajasi an'anaviyga qaraganda yuqoriroqdir. An'anaviy mayda tovar ishlab chiqaruvchilari aylanma mablag'lari tuzilmasida mashina va uskunalarining qiymati emas, balki xom ashyoning qiymati ko'proq ulushni tashkil etadi. Bu esa gilam to'qish, charm va muynadan, rangli metallardan, sun'iy va tabiiy qimmatbaxo toshlardan ishlangan buyumlar ishlab chiqarish uchun xosdir. Bunday tarmoqlar uchun aylanma mablag'lar miqdori asosiy aylanma mablag'lar miqdoridan 25-30 baravar oshadi.

Shu tariqa, Iordaniyada rivojlanishning murakkabliklari va bir xil

emasligiga qaramay, mayda ishlab chiqarish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining muhim qismi hisoblanadi. U jamiyatning xo‘jalik tuzilmasini ko‘p jihatdan belgilaydi va kichik tadbikorlikning asosiy negizini tashkil etadi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida asosiy iste‘mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtacha har to‘qqiz oyda o‘zgarib turishi kuzatilgan. Shuni hisobga olsak, aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatining afzalliklari yanada yaqqol, yorqinroq namoyon bo‘ladi. Ya’ni ular iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam va ravon yo‘lga tushib olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3.1-jadval

Dunyoning ba’zi mamlakatlari iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesning o‘rni⁵⁶

Mamlakatlar	Kichik biznes korxonalari soni		Kichik biznes ulushi, foiz xisobida	
	ming dona	ming kishi xisobiga	jami ish bilan bandlar soni	yalpi ichki mahsulot
AQSH	19266	71,0	53	49-51
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari	14981	46	74	64-65
Buyuk Britaniya	2917	46	49	55-53
Germaniya	2229	37	46	53-54
Italiya	3917	68	73	58-60
Fransiya	1889	35	54	55-60
Yaponiya	6434	49,6	78	52-54
Rossiya	834,4	6,3	9,7	10-12

Yuqoridagi jadvalda turli xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Statistik ma’lumotlarda qayd etilishicha, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50-67 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich AQShda 50-52 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63-67 foizni, Yaponiyada 52-55foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlarida esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past ko‘rsatkichni tashkil etmoqda.

Yaponiyada barcha kompaniyalarning 99,6 foizi, sotilgan mahsulotning 55

⁵⁶ Yusupov B.A. O‘zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – T. 2020.

foizi va sanoatda band bo'lganlarning 80 foizi kichik va o'rta korxonalar ulushiga to'g'ri keladi. Bunday yuqori kursatkichlar ko'pchilik tadbirkorlarning kichik biznesga jalb etilganligidan dalolat beradi. Mazkur mamlakatda kichik biznes sohasi juda ko'p korxonalarni (uy xo'jaligidan boshlab to zamonaviy texnikalar bilan qurollangan firmalargacha) qamrab oladi. Aytish joizki, mazkur davlatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rniga XX asrning 70- yillaridan boshlab munosib baho berib, unga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirib kelingan.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish siyosatida kichik va yirik korxonalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash tendensiyasi amalda qo'llaniladi. Masalan, AQSH qonunchiligida "500 ming dollardan ortiq miqdordagi to'g'risidan-to'g'ri federal bitim tuzishda yirik firmalar bu bitim bo'yicha bajariladigan ishlarning ma'lum bir qismi (foizi)ni kichik korxonalarga berishi (ya'ni ular orqali bajarishi) shartligi belgilab qo'yilgan".

Bu qonunga rioya etishni esa «Kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat» tomonidan nazorat qilib boriladi. Shuningdek, turli xil tashkilot hamda yirik korxonalarining kichik korxonalarga moliyaviy yordam berishga qiziqishini va manfaatdorligini oshirish uchun «Kichik biznes ishlari ma'muriyati» kichik biznes korxonalarini kreditlashda kreditorlarga kreditni to'lay olmaslik xavfini kamaytirish maqsadida zayom kapitalining 90 foizigacha davlat kafolatini beradi (sug'urtalaydi). Bunday siyosatni amalda tadbiri tufayli keyingi yillarda yirik korporatsiyalarning o'z faoliyatlarida kichik biznes korxonalariga alohida ishlar va xizmatlar turlarini berish orqali yuksalishga erishmoqdalar. Chunki, ularning bajarilishi aynan kichik korxonalarda sifatli va samarali bo'lmoqda.

"Iqtisodiy rivojlanish milliy kengashi" tomonidan muntazam ravishda kichik firmalarning ixtisoslashgan katalogi chiqarilib, bu orqali esa yirik kompaniyalar o'zlarining kichik biznesdagi potensial hamkorlarini tanlab olishlariga imkon yaratiladi. Shuningdek, kichik va yirik biznes o'rtasidagi aloqani o'rnatishni amalga oshiruvchi maxsus markazlar yaratilgan. Kichik biznesga katta yordam beradigan tashkilot va yirik kompaniyalardan: Savdo va sanoat vazirligining, «Djeneral elektrik», "Neshil kompyuter" firmalarining axborot markazlarini alohida ko'rsatish mumkin.

3.2-jadval

Ba'zi rivojlangan mamlakatlarida kichik va o'rta biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (foizda)⁵⁷

Davlatlar	Kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	Kichik va o'rta biznesning umumiy bandlikdagi ulushi	Jami korxonalar tarkibida kichik va o'rta biznes korxonalari ulush
AQSH	52	50,1	97,6
Kanada	43	47	99,8
Yaponiya	51,6	69,5	99,2
Germaniya	57	69,3	99,3
Fransiya	49,8	56,6	97,6
Italiya	55	71,0	99,2
Buyuk Britaniya	52	55,5	99,1

Yaponiyada barcha kichik sanoat firmalarining 60 foizdan ko'prog'i yirik firmalar bilan subpodryad asosida ishlaydi. Korxona – subpodryadchi turli masshtabdagi subpodryad kompaniyalarga kiruvchi yirik kompaniyalarning yarim mustaqil a'zolari bo'lib, bu subpodryad kompaniyalar o'z navbatida markaziy kompaniyalar atrofida guruhlangan bo'ladi.

Subpodryadchilar o'z mablag' (kapital)lari hisobidan texnologik jarayonlarning salmoqli qismini tashkil etadilar, detallar va butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilar hisoblanadilar, tayyor mahsulotlarning ta'minotini ta'minlaydilar. Ta'kidlash joizki, "Sony" korporatsiyasining faqat o'zi bevosita texnologik rejada 1100 dan ko'proq kichik korxonalar bilan ishlaydi. Bunday tendensiyaning rivojlanishi soliq to'lash tizimida qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar bo'yicha bu kichik korxonalar uchun "kam bo'lmagan darajada" foyda olishga sabab bo'lmoqda⁴².

Xorijiy mamlakatlar tajribalarida, **birinchidan**, rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri, bu kichik biznes rivoji bo'lib, bu boradagi har qanday umummanfaatini ko'zlagan samarali faoliyatlar davlat ahamiyatiga ega bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Zero, kichik biznes faoliyati o'sib, yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakat ichki bozorini tovar hamda xizmatlar turlari bilan to'ldirishi, shu tariqa eksport salohiyati rivojiga hissa qo'shilishi, aholining ish bilan bandligi muammosi yechilishiga ko'maklashuvi,

⁵⁷ Yusupov B.A. O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – T. 2020.;

aholining real daromadi o'sishiga, pirovard natijada aholinining turmush darajasini yuksalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, jahon bozorida raqobat kuchayayotgan bir paytda, yirik korxonalardan ko'ra aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatga dosh berish, manevrlar qilish, ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish kabi iqtisodiy chora tadbirlar ko'rish oson kechadi.


Ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, bu hol raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu esa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jahon amaliyotida hamda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda.

3.2. Xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish istiqbollari

Bashoratlash jamiyat hayotining barcha sohalarida nazariya bilan amaliyot orasidagi eng muhim aloqalarni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Uning yordamida turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish yo'nalishlari xo'jalikka jalb qilinishi mumkin bo'lgan foydali qazilmalar zahiralar, quvvatli mehnat resurslari, aholining soni aniqlanadi. Shuningdek, ilmiy texnika taraqqiyotining eng samarali yo'nalishlari, xalq iste'mol tovarlariga talablarning o'zgarish yo'nalishlari va shartnomalarni ishlab chiqishda hisobga olish zarur bo'lgan qator boshqa omillarga oydinlik kiritiladi. Bashoratlash ob'ektni rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilish asosida uni rivojlanish jarayonlarining shakllanishiga yo'naltirilgan inson ongli faoliyati turidir. Bashoratlash ikkita

savolga javob berish kerak:



3.1-rasm. Mintaqa hududlaridagi tadbirkorlik rivojlanishini bashoratlash tizimi⁵⁸

- 1) Kelajakda barcha kutilishi mumkin bo'lgan ehtimolliklar nimada?
- 2) Berilgan maqsadga erishish uchun qanday shart-sharoitlar o'zgarishi kerak?

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy holatni bashoratlash, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari bilan iqtisodiy idoralar shug'ullanishmoqda. Ammo hali bu sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlarda anchagina muammolar mavjud bo'lib, bu olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishni talab etmoqda.

⁵⁸ Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari. Monografiya - T.: TMI nashri, 2005

Yuqoridagi ishlab chiqilgan tizimdan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishning bashoratlash variantlari uchun ssenariy shart-sharoitlari belgilanadi. Xususan, bular viloyat tuman va shaharlari o'rtasidagi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki, tadbirkorlikning rivojlanishidagi nomutanosibliklarni yo'qotish; tuman va shaharlarda tadbirkorlik bir xil sur'atlarda izchil rivojlanishini ta'minlash; Tadbirkorlik subektlarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llashdan iborat.

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik hududiy tarkibini shakllantirish va rivojlantirishning quyidagi strategik yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi:

- tadbirkorlik subektlari nisbatan kam rivojlangan tuman va shaharlarga investitsiya jalb etishni ko'paytirish;
- tadbirkorlik past darajada rivojlangan tuman va shaharlarda tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, ekologik omillarni hisobga olgan holda infratuzilmani sifat jihatidan takomillashtirish;
- tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatini boy mahalliy mineral, issiqlik-energetik va boshqa resurslarga asoslangan holda diversifikatsiyalash.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining 2008-2021 yillardagi quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tanlab olingan: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmi (Y), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Yil davomidagi ulushi (Y_1), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari soni (N_{kb}), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni (L_{kb}), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ajratilgan kreditlar va investitsiyalar (I).

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, mustaqillikdan keyingi o'tgan o'n sakkiz yil davomida viloyatda Tadbirkorlik rivojlanish tendensiyalarini eksponensial, darajali, logarifmik, ko'rsatkichli, binominal va chiziqli funksiyalar yordamida tahlil qilganda chiziqli funksiyaning ko'proq real amaliyotni aniqroq ifodalashi namoyon bo'ladi.

Shu sababdan ham chiziqli tenglamaning determinatsiya koeffitsiyenti katta bo'lganligi uchun (0,9819) tenglamaning chiziqli shakli tanlab olinadi. Bunda:

1. Bog‘liq bo‘lmagan barcha o‘zgaruvchilar (N_{kb} , L_{kb} , I) orasidagi korrelyasiya koeffitsiyentlari quyidagicha bo‘ladi (3.3-jadval).

3.3-jadval

Qashqadaryo viloyati tadbirkorlik rivojlanishini bashoratlash modeliga kiritilgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyasiya koeffitsientlari⁴³

	Y_1	N_{kb}	L_{kb}	I
Y_1	1	0,71837	0,967071	0,88196
N_{kb}	0,718374	1	0,757249	0,762707
L_{kb}	0,967071	0,757249	1	0,831151
I	0,881964	0,762707	0,831151	1

Bundan ko‘rinib turibdiki, olingan to‘rtta ko‘rsatkich orasidagi bog‘lanishlar kuchli.

2. Ko‘p omilli korrelyasiya koeffitsiyenti R quyidagiga teng: $R=0,9803$

Chiziqli regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y=22,7243-0,015622 N_{kb}+0,001132 L_{kb}+0,000304 I$$

Omillar bo‘yicha elastiklik koeffitsientlari quyidagiga teng:

$$E_{N_{kb}}=0,0053; E_{L_{kb}}= 0,3643; E_I= 0,4429$$

Fisherning hisoblangan F mezoni qiymati ($F_{hisob}=8,246$) jadvaldagi qiymat ($F_{jad}=3,01$) bilan solishtirilganda ($F_{hisob} > F_{jad}$) natijaning qanoatlanarliligi tasdiqlanadi. Ya’ni olingan to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi real jarayonga mos kelar ekan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Y_{yahm} , N_{kb} , L_{kb} , I larning vaqt bilan bog‘liq regressiya tenglamalari quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned} Y_1 &= 2,6868t+16,899, & R^2 &= 0,9072 \\ N_{kb} &= 1,9668t + 1,9989, & R^2 &= 0,9499 \\ L_{kb} &= 0,408t^2 - 4,6889t+64,698, & R^2 &= 0,7693 \\ I &= 4538,8e^{0,1327t} - 24500, & R^2 &= 0,8597 \end{aligned}$$

Ushbu tenglamalardan ko‘rinadiki, viloyatda Tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi va kichik biznes subektlarining soni bo‘yicha 2008-2021 yillar mobaynidagi ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri chiziqli tenglamasini aniq ifodalaydi, ya’ni yuqoridagi bog‘lanishlarda ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi dinamikasi to‘g‘ri chiziqli qonuniyatga bo‘ysunadi. Bundan tashqari, Tadbirkorlik da bandlar soni bo‘yicha vaqt trendini darajali funksiya, Tadbirkorlikga ajratilgan investitsiyalar

hajmi bo'yicha bog'lanishni esa eksponensial funksiya to'laroq ifodalaydi. Yuqoridagi funksiyalar asosida tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha prognoz qiymatlari aniqlanadi (3.3-jadval).

Shuni qayd etish kerakki, I bosqichda Tadbirkorlikni rivojlantirishga ishlab chiqarish, eksport, infratuzilmaviy, mehnat, ijtimoiy-madaniy, innovatsion omillarning ta'siri ahamiyatli hisoblanadi.

II bosqichda esa iqtisodiy imkoniyatlarning ta'sirida yer-suv, tadbir-korlik, ekologik imkoniyatlar va tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy demografik omillar ta'siri ham salmoqli bo'ladi.

Yuqoridagi bosqichlar asosida tadqiqotda optimistik (I) va pessimistik (II) variantlar amalga oshiriladi.

Optimistik variant 2 ta asosiy holatga asoslanadi: Tadbirkorlikni rivojlantirishga davlatning faol aralashuvi; tuman va shaharlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi, mamlakat va viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalashni jadallashtirish. Bu variant I-bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega tuman va shaharlarda Tadbirkorlik subektlarining tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish hamda tuman va shaharlarda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, kichik va yirik biznes kooperatsion aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, qayta loyihalash, texnika bilan yangidan qurollantirishni nazarda tutadi. Pessimistik variant Tadbirkorlik subektlarini rivojlantirish va joylashtirishning eskicha amaliyoti saqlanishi, joylarda davlatning kichik biznes subektlari rivojlanishiga ma'muriy aralashuvisiz o'z hududlarida mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tadbirkorlikni rivojlantirishni hisobga oladi Tadbirkorlikni rivojlantirishda birinchi variantni amalga oshirish tavsiya qilinadi. Optimistik variant 2 ta asosiy holatga asoslanadi: Tadbirkorlikni rivojlantirishga davlatning faol aralashuvi; tuman va shaharlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi, mamlakat va viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalashni jadallashtirish. Bu variant I-bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega tuman va shaharlarda tadbirkorlik subektlarining tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish hamda tuman va shaharlarda

iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, kichik va yirik biznes kooperatsion aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, qayta loyihalash, texnika bilan yangidan qurollantirishni nazarda tutadi.

3.4-jadval

Qashqadaryo viloyati tuman va shaharlarida tadbirkorlik subektlarining YAHM dagi ulushi bo'yicha prognozi⁵⁹ (foizda)

Mintaqalar	2021yil	2025 yil		2026 yil	
		I variant	II variant	I variant	II variant
Guzor	59,6	69,2	59,9	75,9	64,2
Dexkonobod	55,7	68,9	55,8	72,6	60,7
Kamashi	59,3	69,1	59,6	74,3	62,1
Karshi t.	55,4	68,6	55,9	73,8	61,3
Koson	61,6	70,9	61,8	76,7	63,0
Kitob	58,4	68,5	59,0	74,9	62,2
Mirishkor	62,3	70,4	62,6	76,5	65,1
Muborak	66,0	70,1	66,5	78,7	67,1
Nishon	59,0	68,4	59,7	73,2	63,2
Kasbi	58,9	67,9	59,8	73,6	61,4
Chirokchi	54,2	69,8	55,1	74,8	57,2
Shaxrisabz	59,5	72,6	62,5	79,6	67,6
Yakkabog	60,8	72,8	62,8	80,4	68,5
Viloyat bo'yicha	59,3	69,8	60,1	75,8	63,4

*Muallif hisob-kitoblari: I variant-optimistik, II variant-pessimistik

Optimistik variant viloyatda 2021-2026 yillarda kichik biznes sohasini jadal rivojlantirishni va quyidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni belgilab beradi:

- tadbirkorlik ning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha dastur va loyihalarni davlatning bosh islohotchiligiga asoslanib, bosqichma-bosqich amalga oshirishni davom ettirish;
- tadbirkorlik subektlarini o'z resurslaridan yanada to'liqroq foydalanishiga erishish, qo'shma korxonalar tashkil etish, yirik va kichik ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat muhitini yanada yaxshilash;

⁵⁹ Qashqadaryo viloyati Statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi

- tadbirkorlik subektlarining texnikaviy qayta qurollantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislarni jalb qilish va qayta o'qitish asosida ular mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish;

- tadbirkorlik subektlarining hududiy va tarmoq tarkiblarini yaxshilash;

- tadbirkorlik subektlarida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning ilg'or shakllarini qo'llash;

- qisqa muddatda qoplanuvchi investitsion loyihalarni amalga oshirish.

Viloyatda iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish iqtisodiyotda sifat jihatidan siljishga erishishni ta'minlaydi. 2026 yilgacha kichik tadbirkorlik ulushini bosqichma-bosqich sanoatda 13-14 foizgacha, qishloq xo'jaligida esa 99,0 foizga, pullik xizmat ko'rsatishda 65,5 foiz, eksportda ulushini 11,0 foizga, qurilish ishlarida 36-38 foizga yetkazish belgilab olindi.

Viloyat hokimligi tomonidan viloyatda kichik biznes sohasini barqaror rivojlantirish uchun 2030 yilgacha bo'lgan maqsadli dastur ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy siljishlar asosida eksportni rag'batlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilishi lozim. Buning uchun kichik tadbirkorlikning tovar va xizmatlarini tashqi bozorda muvaffaqiyatli sota oladigan maxsus tashqi savdo tashkilotlarini rivojlantirish; sifatni boshqarishning xalqaro tizimini amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish; eksportga chiqarilayotgan yuklarga transport xizmati ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda yo‘nalishlarini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz iqtisodchilar va mutaxassislarning ma‘muriy-hududiy, milliy va jahon xo‘jaligi rivojlanishida mushtaraklikni tiklashga bo‘lgan e‘tiborini keskin oshirdi. Mamlakatimizda inqiroz xatarlariga barham berish bo‘yicha dastur xalqaro amaliy hamjihatlik va hamkorlik borasidagi choralar ko‘lami kengayishini yangi bosqichga ko‘tardi va yangi ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘ldi. Ayniqsa milliy iqtisodiyot mavqeining mustahkamlanishida, tadbirkorlik rivojining tadqiq va tahlil talabligi ortmoqda.

2. Tadbirkorlik subektlarida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag‘batlantirish tizimini yaratish zarur. Bu borada modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlarini jadallashtirish uchun korxonalarining o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan sarmoyalarini uch yilga daromad (foyda) solig‘idan, o‘rnatilgan va ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan yangi uskunalarni esa mulk solig‘idan ozod qilish bu masalaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish ushbu masala bilan shug‘ullanuvchi ilmiy- tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va boshqa tashkilotlar faoliyatiga bog‘liq. Shuningdek, bu sohada innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga tamomila yangicha yondashuvni joriy etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan, fan sig‘imi yuqori bo‘lgan yuqori texnologik jihozlarni joriy etish; kichik tadbirkorlikda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarini yaratish (shartnoma, grant, kooperativ kelishuv); ilmiy-tadqiqot faoliyatini investitsiyalashning bilvosita rag‘batlantirish usullarini rivojlantirish (soliq imtiyozlari, pasaytirilgan kredit stavkalari bo‘yicha qarz berish, davlat ilmiy-tadqiqot va o‘quv muassasalarini

litsenziyalash jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash).

4. Kichik biznes subektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda sifatli hamda zamonaviy texnik baza negiziga erishish zarur;

5. Tahlillarga ko'ra, kelgusida mintaqada xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: mikrocredit va mikrolizing xizmatlarini asosan yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirish; mikrocreditlardan foydalanilayotgan mijozlar sonida boshlang'ich sarmoyalardan foydalanadigan mijozlarni oshirish. Bunda yuridik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbirkorlik subektlariga alohida e'tibor qaratish; kelgusida mikrocreditlarning asosiy qarz to'lovlari hamda ularga hisoblangan foiz to'lovlari to'liq qaytarilishini ta'minlash orqali muddati o'tgan qarzдорlikka yo'l qo'ymaslik va monitoring ishlarini kuchaytirish; mikrocreditdan foydalanadigan mijozlar soni muntazam oshib borishini inobatga olgan holda hamda ajratilgan mikrocreditlarning o'z vaqtida qaytarilishining ta'minlanishida muammolar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida joylarda bu mavzularga bag'ishlangan seminarlar o'tkazish va ularning samaradorligini oshirib borish.

6. Tahlillar ko'rsatishicha, kelgusida viloyatda ko'zda tutilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish eng avvalo ichki resurslar va imkoniyatlardan to'laroq foydalanishni, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratishni taqazo etadi. Bu borada xorijiy investitsiyalarning yangi shakllarini jalb etishni rag'batlantirish bo'yicha huquqiy bazani takomillashtirish; mavjud imtiyozlardan samarali foydalanish; davlat va xususiy tuzilmalar o'rtasidagi investitsion sherikchilik aloqalarini rivojlantirish; investitsion loyihalarni tanlashda va ularni asoslashda moliyaviy korxonalarga ko'proq erkinlik berish; xorijiy hamkorlarga mamlakat investitsion salohiyati to'g'risida kengroq ma'lumot berish talab etiladi.

7. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: sanoatda

kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi investitsiyalar hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalar barpo etish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshirishini rag'batlantirish; fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug'dirish, xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirish; qishloq xo'jaligi korxonalariga o'z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashish choralarini ko'rish; iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi ijobiy institutsional va tarkibiy o'zgarishlar, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash poydevori hisoblanadi.

8. Viloyatda kichik tadbirkorlikning yanada rivojlanishida kredit muassasalarini rivojlantirish muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda, bank-moliya tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida: aholi va tadbirkorlarning banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, banklararo raqobat muhitini shakllantirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va ularning yangi turlarini rivojlantirish, mikrokreditlar berilishini sezilarli darajada kengaytirish lozim. Kichik tadbirkorlik muhiti himoyalaniishi, qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi, uning tuzilmaviy islohotlar darajasiga bog'liqligini orttirmoqda. Bunda ayrim tarmoq yoki tadbirkorlik subektlari emas, yaxlit hududiy tadbirkorlik rivoj topadi.

9. Hududlardagi tadbirkorlik taraqqiyotiga ko'maklashuvchi idora va muassasalar, komissiya va kengashlar faoliyatida ishlab chiqilayotgan va tatbiq etilayotgan tadbirlar, dasturlar va boshqa yondashuvlarda hududlarning qoloqlik sabablariga barham berishdagi mushtaraklik yetishmaydi. Tor doiradagi manfaatdorlikdan hududiy manfaatdorlik ustuvorligiga o'tish hududlar darajasidagi muttasil mutanosiblik va

10. Joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida seminar va uchrashuvlar tashkil etish rejalarini doimiy amalga oshirib borish. Uchrashuvlarni bevosita

mahalla fuqarolar yig'inlarida, har bir oila bilan uchrashilgan holda tashkil etish.

11. Mikro kreditlardan foydalanilayotgan jami mijozlar sonida boshlang'ich sarmoyalardan foydalanadigan mijozlar sonini 55,0 foizgacha yetkazish. Bunda yuridik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbirkorlik subektlariga alohida e'tibor qaratish.

12. Joriy yilda ajratiladigan mikro kreditlarning asosiy qarz to'lovlarini hamda ularga hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq qaytarilishini ta'minlash orqali muddati o'tgan qarzдорlikka yo'l qo'ymaslik va monitoring ishlarini kuchaytirish.

13. Kredit uyushmalari va mikro kredit tashkilotlarining professional xizmatlarga va axborotga kirishini ta'minlaydigan yordamchi xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirish. Xususan, xodimlarni o'quv va konsalting markazlarida doimiy ravishda o'qitishni tashkil etish orqali mikro kredit tashkilotlari va kredit uyushmalarining institutsional salohiyatini kuchaytirishga ko'maklashish, mikromoliyaviy sektorning yordamchi xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, mikro kredit tashkilotlari assotsiatsiyasini ta'sis etish orqali rivojlantirish, "Kredit byurolari faoliyati va kredit axborotini ayirboshlash to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish, mikro kredit tashkilotlari va kredit uyushmalari tomonidan kreditlar bo'yicha amaldagi foiz stavkalari to'g'risidagi axborot muntazam e'lon qilinishi zarur.

14. Tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun viloyatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Viloyatning qulay geografik joylashuvi, mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy va boshqa resurslarning mavjudligi ancha keng xo'jalik faoliyati turlari bilan shug'ullanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI
I. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK
AHAMİYATGA MOLIK NASHRLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:O'zbekiston, 2020.- 40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi “Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-5087 sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2012 yil 2 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ijtimoiy dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5041 sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2017 yil 1.02 dagi PQ-2750-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 07 martdagi “Hududlarda aholini tadbirkor-likka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4231-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Har bir oila - tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori, 2018 yil, 07 iyun
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-sonli Farmoni
10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. “O'zbekiston”, 2016.
11. Sh.M.Mirziyoyev. Tadbirkorlikni rivojlantirish–davlatni rivojlantirish demakdir. 2021 yil avgust
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari

II. MONOGRAFIYA, ILMIY MAQOLA, PATENT, ILMIY TO‘PLAMLAR

14. Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo‘llari. Monografiya - T.: TMI nashri, 2005
15. Ahmedov F. Xonadon xo‘jaliklari va ularning istiqbollari //Jamiyat va boshqaruv. 2007, 1-son.
16. Abdullaev Yo., Yuldashev Sh.A. Maloy biznes i predprinimatelstvo. –T.: “Iqtisod –moliya”, 2008.
17. Abulqosimov H.P. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar. –T.: Akademiya. 2008.
18. Amanov O.A. Aholini ish bilan samarali ta‘minlashda yangi ish joylari yaratishning ahamiyati. Iqtisodiyot va ta‘lim” jurnali Toshkent, 2011
19. Boymurodov S. Demografik muammolar: tarix, hozirgi ahvol, tahlillar // Jamiyat va boshqaruv. 2008. 2-son.
20. Begjanov B. Oilaviy biznes: ham an‘anaviy, ham zamonaviy //Birja, 2011 yil 21 iyun.
21. Djalilova N.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. – T. “Iqtisod-Moliya”, 2017
22. Mamatov F.F. Kichik biznesning rivojlanish muammolariga sinergetik yondashuv asosida uni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari.-T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.-13-bet.
23. Muxitdinova M.Z. “Aholi turmush darajasini baholash: tahlil va samara” - Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2019 yil;
24. Shadibekova D.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish. Electron jurnal TSUE, - 2020 yil, 27 iyun (<https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/1524>)
25. Сорокина А.В. Функции бедности: анализ западных концепций и реалии российской действительности //Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского: серия социальные науки. 2002. №1. С. 219
26. Yaroshenko, S.S. Sindrom бедности //Социологический журнал. 1994. №2 S25.
27. Ravshanov A.D., Ergashev J.R. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirish yo‘llari “Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish va ta‘lim xizmatlari sohalarini rivojlantirish muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. II-qism. Samarqand –Tambov, 2022 yil 18-19 fevral. –14-17 betlar

28. Ergashev J.R., Raimov F.I. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat munosabatlarini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari “Innovatsion iqtisodiyot: muammo tahlil rivojlanish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar to‘plami. II-qism. Qarshi, 2021 yil 20-21 may. 304-306 betlar

29. Ravshanov A.D., Ergashev J.R. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘llari “Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda raqamli transformatsiya” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami Denov, 2022 12-15 betlar

III. FOYDALANILGAN BOSHQA ADABIYOTLAR

30. Abdurahmonova.G.Q. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta’minlashni takomillashtirish: iqt.fan.dok.diss. – T. 2016.

31. Агабекян Р.А. Современные теории занятости. М, 2001.

32. Алаев Л.Б., Асамба А.А., Вигасин А.А. и другие. Экономические взгляды Аристотеля /Всемирная история экономической мысли. - М.: Мысль, 1987. С.127-135.

33. Ahmedov B., Aminov A. Amir Temur o‘g‘itlari.-T.:Navro‘z, 1992, 11-bet

34. Сутырин С., Брызгалин М. История экономических учений. Учебник для вузов. 3-изд.-М.: Мысль, 2007.-С.123

35. Смит Адам. Исследования о природе и причине богатства народов.- М.: 1962.-С.332-334;391-392

36. Автономов В. Практика глазами теоретиков (феномен предпринимательства в экономической теории) //Предпринимательство в России. №4, 1997г.-С.5-11

37. Шумпетер Й. Теория экономического развития.- М.: Прогресс,1982.- С.456

38. Предпринимательство в конце XX века. – М.,1992. – С.34; Бусыгин А.В. Предпринимательство: основной курс: учебник для вузов. – М.: ИНФРА-М, 1997.-С.14.

39. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство.Вып.1.-М.,1991.- С.30

40. Коуз Р. Фирма, рынок и права - М.: Республика, 1993.-С.37-38.

41. Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 томах. Том1.- М.: Республика, 1992.-С.38.

42. Shodmonov SH.SH., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T., 2007.-136-bet.

43. Kalendjyan S., Volkov D. Razvitiye semeynogo predprinimatelstva v

Rossii. M, 2006. - s. 43

44. Keanon J. Alderson. Understanding the family business. Business expert.

45. Власова Б.Н. “Основы предпринимательской деятельности”. 1995

46. G‘ulomov S.S. Menejment. O‘quv qo‘llanma. TDAU, 1998 yil.

47. G‘ulomov C.C., Догол Л.Ф., Семенов Б.А. “Предпринимательства и малый бизнес”, 2012

48. Копач К.В. Личное подсобное хозяйство сельского населения и его интеграция с предприятиями агропромышленного комплекса. – М.: ФГНУ «Росинформагротех». – М. – 2002.

49. Makoli Alaster Opredeleniye i izmereniye bednosti // Bednost: vzglyad uchenix na problemu. M., 1994. S.7-10.

50. Mustafoqulov SH.I. “Kambag‘allik ayb emas, biroq...”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 mart, № 62 (7564).;

51. Муздибаев К. Экономическая депривация, стратегия ее преодоления и поиск социальной поддержки. СПб, 1996.

52. Menning N. Rossiya v bede // Mir Rossii. 2001.-№ 1. S. 17.

53. Magomayev M.M.Bednost i mexanizmi yeye preodoleniya:Uchebnoye posobiye. - Maxachkala, 2004. S. 14.

54. Пардаева Б. “Состав доходов и социальная защита населения”. 19 -е Международное Плехановские чтений. М.:2006 , с 32-33.;

55. Разумов А.А. Россия: подготовка стратегии борьбы с бедностью, анализ и методологические подходы. – М., 2001. С. 15.

56. Райсин В.Й. Модели планирования уровня жизни. – М. “Экономикс”, 1987, стр 42-60

57. Saidov K.S. va boshqalar. Sotsial iqtisodiyot -T.: “O‘zbekiston”, 2006. 365;

58. Saidov M.X, Nasriyev I.I. va boshqalar Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug‘ati.-T: “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi”, 2007. -B. 436.;

59. Сакс Д Д., Конетс бедности. Экономические возможности нашего времени. Перс. С англ. Н.Эделмана. - М.: Изд.Института Гайдара, 2011. - 424с.;

60. Слезингер Г.Э. “Социальная экономика” -М.: «Дело и сервис», 2001. 360 с.;

61. Sicheva V.S. Izmereniye urovnya bednosti: istoriya voprosa. - M., 1996. № 3. S. 142.

62. Surinov A.YE. Doxodi naseleniy. Opit kolichestvennix izmereniy. M., 2000. S. 306-309

63. Tompson D.L., Pristli D. Sotsiologiy. M., 1998. S. 353.
64. Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press 27;
65. Ricardo David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135. 33;
66. Solow, Robert M. (February 1956). "A contribution to the theory of economic growth". Quarterly Journal of Economics. 70 (1): 65–94. doi:10.2307/1884513. 34; Sen A. (1981) Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press;
67. Uilyam Zeyts “Gde oni jivut? Pokazateli urovney bednosti, srednego potrebleniya i srednego klassa v Sentralnoy Azii na rayonnomurovne” - wseitz@worldbank.org; Williams F. Social Policy: a critical introduction. L. 1994;
68. Haveman R. New Policy for the New Poverty // Challenge. 1988. September, October.; World Economic Outlook, International Monetary Fund. April 2018. Chapter IV. P. 8.
69. Xayek F.A. Pagubnaya samonadeyannost: oshibki sotsializma. Pod red. Bartli U.U. - M., 1992.
70. Хашимов П.З. “Экономика социальной сферы”. -Т.: «Университет», 2002. 210 с.

IV. STATISTIK TO'PLAMLAR

- 71 O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining 2019 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. T.2020
72. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. 2019 yil. – T., 2020.
73. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2012-2021 yillar
74. Qashqadaryo viloyati 2017-2021 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlar to'plami.

V. INTERNET SAYTLARI:

1. www.state.uz
2. www.qashstat.uz.
3. www.gov.uz
4. www.mehnat.uz
5. www.ziyonet.uz